

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

SHARQ FILOLOGIYASI VA TARIX FAKULTETI MARKAZIY
OSIYO XALQLARI TARIXI KAFEDRASI

Egamberdiyeva Inobat Izomovna

MO'G'ULISTON: TARIXIY MANBASHUNOSLIGI VA
TARIXSHUNOSLIGI BO'YICHA MATERIALLAR TAHLILI

BITIRUV – MALAKAVIY ISHI

Ta'lim yo'nalishi: 5220200 – tarix

Ilmiy rahbar: Katta o'qituvchi X. Fayziyev

Toshkent-2011

Himoyaga ruxsat berildi

Fakultet dekani: Filologiya f. n. dotsent. J.Ziyomuhamedov_____

Kafedra mudiri: Tarix f. d. professor M.Is'hoqov_____

Kirish.....	3-7
I BOB. Mo'g'uliston (Sharqiy Turkiston, Yettisuv)	
tarixining manbalaritafsiloti.....	8-33
1.1 Muhammad Haydar Mirzo va uning “Tarixi Rashidiy” asari	
tahlili.....	8-16
1.2 Rashididdinning “Jome’ ut-tavorix” asarida Mo'g'ulistonga oid	
manbalar tahlili.....	17-28
1.3 Mirzo Ulug'bekning “Tarixi arba’ ulus” asari	
tahlili.....	29-35
II BOB. Mo'g'uliston tarixi tarixshunosligiga oid	
ma'lumotlar.....	36-49
2.1 Sharqiy Turkistonning mo'g'ullar tasarrufidagi davri tarixining	
o'rganilishi.....	36-42
2.2 Yettisuv mintaqasi tarixining tarixshunosligi.....	43-49
Xulosa.....	49-51
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	52-53

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi.

Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishq jo'sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Biz shunday ma'naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni yashnatib tursin.

Biz o'rganayotgan mavzu juda tadqiqot talab mavzulardan sanaladi. Ayrim tarixchilar shu mavzu ustida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borib o'z tadqiqotlari doirasida yoritib berishga harakat qilishgan. Lekin bir kishi mo'g'ullarning umumiy tarixini yozmagan. Tarixchi olimlar o'z tadqiqotlarida ma'lum bir davr bo'yicha o'rganganlar. Ayrim adabiyotlarda Chingizxon va uning hokimiyat tepasiga kelishi, ko'pgina qabilalarni bo'ysundirib, mo'g'ullar davlatiga asos solishi haqida yozilsa, ayrimlarida Chingizxon vafotidan keyingi davrlar, o'g'illarining hukmronlik davrlari, Chig'atoy ulusi haqida o'qish mumkin, lekin mana shu davr tarixi yaxlit bitta kitob qilib yoritilmagan. Agar shu mavzu ustida tadqiqot olib borib, mo'g'ullar tarixi bo'yicha yaxlit bir asar yozilsa bu davr uchun katta yangilik bo'lishi mumkin. Keyingi yosh avlod uchun katta imkoniyatlar eshigi ochilgan bo'lardi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Yosh avlodga biz ozod va obod vatanni meros qoldirmog'imiz kerakki, ular bobolarning ulug' niyatlari va ishlarini davom ettirsinlar. Chunki yoshlarning ma'naviy uyg'oqligi millatni g'aflatdan asrovchi asosiy omillardan biridir".¹

Chig'atoy ulusi parchalangandan keyin tashkil topgan Mo'g'uliston davlati (Sharqiy Turkiston va Yettisuv) tarixi yetarli darajada o'rganilmagan. Hali ko'p tadqiq qilinishi kerak bo'lgan mavzu hisoblanadi. Bu haqdagi ma'lumotlar uchrasa ham unchalik ko'p emas. Markaziy Osiyo tarixini manbalar asosida o'rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri. Shunday ekan, biz bo'lajak manbashunos sifatida FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHI qo'lyozmalar

¹ Karimov.I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.O'zbekiston.T.:1995.31-b

fondida saqlanayotgan qo'lyozmalarni o'qib, manbalarni tahlil qilib, shu davr tarixi bo'yicha yaxlit bir qo'llanmayaratish bilangina ushbu dolzarb masalaning yechimini topish mumkin. Zero, o'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q.²

Mavzuning o'rganilish darajasi.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi yurtimizda ijtimoiy fikr erkinligi uchun keng imkoniyatlar yaratdi, milliy madaniy meros xususan, mumtoz adabiyot va tarixiy asarlarni o'rganishga xolis yondashuv yetakchi usulga aylandi. Biz boy va qadimiy tariximizni qaytadan kashf etish imkoniga ega bo'ldik. Respublikamiz Prezidinti aytganlaridek, "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi".³

Mo'g'ullar tarixi bilan qiziqib o'z tadqiqotlarini olib borgan ko'plab tarixchi olimlar, sharqshunoslarni aytish mumkin.

Ulardan biri rus sharqshunos olimi V.V.Bartolddir. U 9 tomli to'plamining 3 tasida mo'g'ullar tarixini yoritadi. "Turkiston mo'g'ullar bosqinchiligi davrida" nomli asarida Chingizxon va undan keyingi xonlar bayoni ketma-ketlikda yoritiladi. Mo'g'ul qo'shinlarining g'arbda Yettisuvgacha borib, bu viloyatning shimoliy qismini mo'g'ul imperiyasiga qo'shib olishi, Yettisuv poytaxti Bolasog'unni hech qanday qarshiliklarsiz egallanishi, Chingizxon tomonidan Xitoyning bosib olinishi va qo'lga kiritilgan g'alabalar, Sharqiy Turkistonning bosib olinishi haqidagi ma'lumotlarni olish mumkin. V.V.Bartoldning mo'g'ullar tarixi bayon qilingan yana bir asari "Работы по истории и филологии тюрских и монгольских народов" da mo'g'ul bosqinchi va mo'g'ul imperiyasining asoschisi Chingizxon va uning bosqinchilik yurishlari haqidagi ma'lumotlarni beradi. XIII asr manbalarida mo'g'ul xalqi "tatarlar" deb ataladi. Tatar so'zi VIII asrda xalq nomi sifatida paydo bo'ladi. Xitoyliklar tatarlarni uchga bo'ladi. Oq, qora va "yovvoyi" tatarlarga bo'ladi. Chingizxon qora tatarlardan kelib chiqqan deyiladi ushbu asarda.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.Ma'naviyat.T.:2008.4-b

³ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Muloqot.1998.2-b

B.Ya.Vladimirtsovning “Общественный строй монголов” nomli asarida ham mo’g’ullar tarixi haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Uning tadqiqotlarida esa ko’proq mo’g’ullar olamining hozirgi holati va uning o’tmishi to’g’risidagi ma’lumotlarni e’tiborga olib, mo’g’ullarning ijtimoiy tuzumi taraqqiyotini tasvirlaydi.

Mo’g’ullarni shunday ta’riflaydi: “mo’g’ullar bu keng tarixiy sahnada paydo bo’lgan, uzoq va jo’shqin tarixiy hayotda yashagan xalqdir”.

M.Ivaninning “Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur” nomli kitobida Chingizxonni buyuk sarkarda sifatida e’tirof etadi. Bu asarda keltirilishi bo’yicha Chingizxon oddiy xondan ko’plab jangari qabilalar ustidan o’z hukmronligini o’rnatgan va ushbu podsholiklarga qo’rquv soluvchi kimsaga aylanadi. Asarda asosan Chingizxon tarixi bayon qilinadi. Chingizxon qabul qilgan qonunlari, harbiy tuzilmalari, qoidalar va siyosati haqida to’xtalib o’tadi.

Mavzuning manbashunosligi.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixini manbalar asosida o’rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan sanaladi. Manbalarga asoslangan mavzularni yoritishda har bir tarixiy davrning o’ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-siyosiy tuzumning xarakteri bilan bog’liq holda o’rganish maqsadga muvofiqdir. Madaniyat va ma’naviyat tariximizda XV asr oxiri XVI asrning birinchi yarmi o’lmas asarlarga g’oyat boyligi, bu davrda xalqimiz insoniyatga ko’pgina ilm va adab daholarini yetkazib bergani bilan alohida e’tiborga loyiq.⁴

Shunday manbalardan biri Mirza Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asaridir. G’arbiy Yevropa muarrixlaridan birinchi bo’lib, V.Erskin Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asari bilan tanishib chiqadi va Markaziy Osiyo hamda Sharqiy Turkistonning XV-XVI asrlar tarixini yoritishda uning ma’lumotlaridan foydalangan. Bu asarda Mo’g’uliston xoni Tug’luq Temurxonning taxtga o’tkazilishidan mo’g’ul xoni Sulton Saidxon davrigacha bo’lgan voqealar bayoni keltiriladi. Biz ushbu manbadan Chig’atoy ulusining parchalanishi va undan so’ng mo’g’ul xalqining islomni qabul qilishi va Tug’luq

⁴ Qudratullayev H. Bobur armoni.Sharq.T.:2009.3-b

Temurxonning Sharqiy Turkiston va Yettisuv o'lkalarini birlashtirib Mo'g'uliston davlatini tashkil qilgani va xon qilib ko'tarilgani davri hamda undan keyingi xonlar tarixi haqida qiziqarli va juda ahamiyatli ma'lumotlarni olamiz.

Mo'g'ullar tarixi haqida ma'lumot beruvchi manbalardan yana biri mashhur qomusiy olim, tarixchi, tilshunos, tabib va yirik davlat arbobi Rashiddinning "Jome' ut-tavorix" asaridir. Mo'g'ullar tarixi haqidagi muhim manbalar qatoriga qo'shar ekanmiz, ushbu asar o'rta asr tarixnavisligining o'ziga xos noyob obidasi hisoblanadi. Bu asar o'rta asr sharq tarixchiligida yangi an'anani boshlab bergan asardir. Unda musulmon mamlakatlari tarixi bilan birga, G'arb mamlakatlari, Xitoy hamda Hindiston tarixini ham yoritishga harakat qilingan, Sharq mamlakatlari tarixi ham bayon etiladi. Asarda mo'g'ullar asos solgan davlatlar, Ulug' yurt ya'ni Mo'g'uliston hamda mo'g'ullar tomonidan bosib olingan mamlakatlar, Shimoliy Xitoy, O'rta Osiyo va Yaqin Sharq hamda O'rta Sharq mamlakatlari xalqlarining mo'g'ul istilosigacha bo'lgan qisqacha tarixi bayon etiladi.

Yana bir muhim manba Mirzo Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") asaridir. Mirzo Ulug'bekning tarix ilmi sohasida yozilgan ushbu asari u yaratgan asarlar orasida alohida o'rin tutadi. Ko'p bora tanqidlarga uchragan bo'lsada, lekin undagi ma'lumotlar o'z qimmatini yo'qotmaydi. Asar muqaddima va yeti bobdan iborat bo'lib, unda mo'g'ullar, mo'g'ul xonlari, mo'g'ullar davlati bayoni batafsil yoritilgan. Asarning 3-bobi, ya'ni eng katta qismida Chingizxon tarixi yozilgan. Chingizxonning tug'ilishidan tortib hokimiyat tepasiga kelishi, hukmronlik yillari va vafotidan oldin o'z hukmronligidagi yerlarni o'g'illari o'rtasida taqsimlab berishi haqidagi ma'lumotlar o'z ifodasini topgan bu asarda.

Mavzuning ilmiy ahamiyati.

Tadqiqotimiz mavzusi bo'lgan mo'g'ullar va ular tuzgan davlat Mo'g'uliston tarixi haqida izlanish, o'rganish va tahlil qilish jarayonida muhim ma'lumotlarga ega bo'lindi. Tadqiqotni kelgusida magistirlik, nomzodlik ishlari darajasida qayta ishlash va tadqiq qilish juda muhim bo'lib, kelajakda qimmatli ma'lumotlar olish imkonini beradi degan umiddamiz.

Tadqiqotning maqsadi.

Biz mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan so'ng buyuk ajdodlarimizning beqiyos ma'naviy merosi, ming yillik tariximiz va madaniyatimizga asoslangan ma'naviy hayotimizni tiklay boshladik. Dinimiz va tilimizga qaytdik, milliy urf-odatlarimiz va an'alarimiz xullas, inson ma'naviyatiga daxldor barcha boyliklarimiz qaytadan qad rostlayapti. Odamlarda o'zligini anglash, milliy g'urur, oriyat, o'tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni barpo etishni o'z qo'limizga olganimizdan g'ururlanish kabi tuyg'ular kamol topayapti, ularning bugungi va ertangi kunga ishonchi ortib borayapti,⁵ deya ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Ushbu mavzuni tadqiq etishdan asosiy maqsad, mavzuga doir manbalarni o'rganib, tahlil qilib, mo'g'ullar, mo'g'ul xonlari tarixi va ular bosib olgan o'lkalar hamda Mo'g'uliston davlati tarkibiga kirgan hududlar tarixini atroflicha yoritib, mavzuni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi.

Mavzuni ochib berish uchun qo'yilgan asosiy vazifalar quyidagilar:

- mavzuga oid manbalarni to'plash;
- mavzuga doir adabiyotlarni to'plash;
- manba va adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
- manba va adabiyotlarda barilgan Mo'g'uliston(Sharqiy Turkiston,Yettisuv) haqidagi ma'lumotlarni to'plash;
- to'plangan ma'lumotlar asosida mavzuni ochib berishdan iborat.

BMI tuzilishi.

Tadqiqot kirish,II bob 5 paragrafdan iborat. I-bob 3 paragraf, II-bob 2 paragraf.

⁵ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. O'zbekiston.T.:1996.46-b

I BOB. Mo'g'uliston (Sharqiy Turkiston, Yettisuv) tarixining manbalari tafsiloti.

1.1 Muhammad Haydar Mirzo va uning “Tarixi Rashidiy” asari tahlili.

Mo'g'uliston tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi yana bir muhim manba O'zbekiston va jahon tarixchi olimlari tomonidan “Markaziy Osiyo haqidagi yagona mukammal asar” deb bir og'izdan tasdiqlangan “Tarixi Rashidiy” nafaqat Mo'g'uliston, ayni paytda O'rta Osiyoning o'sha davrdagi yirik shaharlari Andijon, Toshkent, Xo'jand, Sayram, Turkiston, O'ratepa, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Hisor, Qunduz, Marv va boshqa mamlakatlar : Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Kashmirning XV-XVI asrlardagi tarixini o'rganishda birlamchi asosiy manbalardan bo'lib xizmat qiladi.

“Tarixi Rashidiy” nomli mashhur asar muallifi Boburning kichik xolavachchasi Muhammad Haydar Mirzo bo'lib, uning ota-bobolari turklashgan mo'g'ul urug'laridan dug'lot{mog'ulcha “dog'olot”-cho'loq} qabilasiga mansubdir. Ular Mo'g'ulston xonlari, Chig'atoylar davrida ulusbegi, Koshg'ar hokimi lavozimida turganlar.

Yuqorida aytib o'tganimiz asar muallifi Boburning kichik xolavachchasi ekanligini “Boburnoma” va “Tarixi Rashidiy” asarlari qiyosida bu asarlar mualliflarining o'zaro yaqinligi, qarindosh-urug'chiligini ko'ramiz. “Tarixi Rashidiy”ning muallifi bu haqda shunday yozadi: “Mo'g'uliston xoni Yunusxonning katta qizi Mehr Nigor xonim bo'lib, uni Sulton Ahmad mirzoga berishgan. Undan kichigi Qutlug' Nigor xonimni Umarshayx mirzoga berishgan, undan Zahiriddin Muhammad Bobur va Xonzoda begim tug'ilgan. Yunusxonning qizlaridan uchinchisi Xo'b Nigor xonimni otamga berishgan, u mening onam bo'lgan”.⁶

⁶ Muhammad Haydar mirzo. Tarixi Rashidiy. Sharq.; T. 2010 13-b

Demak, Haydar mirzoning onasi Boburning onasiga singil bo'ladi. Bobur mirzo va Haydar mirzo xolavachchalardir.

Mirzo Haydar nomi bilan mashhur bu noyob iste'dod sohibi 1499-yil Toshkentda Muhammad Husayn mirzo oilasida dunyoga kelgan. U zamonasining o'qimishli va keng ma'lumotli kishilaridan edi. Bobur "Boburnoma"da Mirzo Haydarni ta'riflab shunday deydi: "Xat va tasvir va o'q va paykon va zihgir {kamon otish}, har nimaga ilgi chaspon (yarashiqli)dur. Tab'i nazmi ham bordur. Manga arzadashti kelib edi, inshosi yomon emas"⁷ U durustgina xattot rassom, shuningdek, sarkarda, nayza va kamon yasovchi usta bo'lgan.

Muhammad Haydarning bizgacha ikki yirik asari yetib kelgan. Bulardan biri "Jahonnoma" deb atalib, ertak tarzida yozilgan. Uning yagona qo'lyozmasi Germaniyaning Berlin shahri kutubxonalaridan birida saqlanmoqda.⁸

Olimning ikkinchi yirik va mashhur asari "Tarixi Rashidiy"dir. Asar bir necha yillar davomida Kashmirda yozilgan. Asar ikki qism ya'ni daftardan iborat bo'lib, birinchi qismida Mo'g'uliston xalqlarining tarixi Tug'luq Temur(1348-1363)dan to Abdurashidxonning taxtga uturguni(1533-y)gacha bo'lgan xonlar tarixini, ikkinchisi esa muallifning 1541-1542 yilgacha bo'lgan yodnomalarini qamrab oladi.

Asarning birinchi qismi turli naql-rivoyatlar, shuningdek, Yoqut Hamaviyning "Mo'jam ul-buldon", Juvayniyning "Tarixi Jahonkushoy", Rashiduddinining "Jome' ut-tavorix", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Mirzo Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus" va Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' us-sa'dayn" kitoblaridagi ma'lumotlar asosida yozilgan. Lekin, undan ham Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid yangi, asl nusxada bo'ladigan ma'lumotlar k'o'p. Qolaversa, birinchi qismi Koshg'ar, Qozog'iston, shuningdek, Movarounnahr va Turkistonning XIV-XVI asr boshlaridagi siyosiy tarixini mukammal qamrab olishi bilan qimmatlidir.

⁷ Sharq mash'ali. T,1997 1-2-sonlar 86-b

⁸ Madraimov A, Fuzailova G. Manbashunoslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, T.;2008 214-b

Asarning ikkinchi qismi birinchisidan keskin farqli o'laroq, esdalik, xotiralar tarzida yozilgan bo'lib, Koshg'ar, Movarounnahr, Afg'oniston hamda Shimoliy Hindistonning XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o'rganishda asosiy va qimmatli manbalardan hisoblanadi.

Asar 1895-yilda Y.D.Ross tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingandan keyingina butun G'arbiy Yevropa sharqshunoslari orasida ommalashdi. Uning ayrim qismlari uyg'ur, rus, qozoq va nihoyat asar to'lig'icha o'zbek tiliga ham tarjima qilindi Asar A.O'rinboyev, R.Jalilova va L.Epifanova tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, so'z boshi va zarur izohlar bilan, 1996-yilda Toshkentda chop etilgan.

Eng e'tiborli tomoni shundaki. Ushbu asrni endi biz o'z ona tilimizda ya'ni o'zbek tilida o'qiy olamiz. Ushbu mashaqqatli ishga muvaffaq bo'lish oson kechmagan albatta. Bobur jamoat fondining raisi Zokirjon Mashrabov "Tarixi Rashidiy"ni "bu ikkinchi Boburnoma"dir,⁹ deya e'tirof etadi. Nihoyat ushbu asarning turli tillarga tarjima qilingan nusxalari bilan birgalikda "Tarixi Rashidiy"ning Muhammad Niyoz Abdulg'ofir o'g'li bajargan turkiy tarjimasini taqqoslab asl nusxadan foydalanib amalgam oshirilgan. Bundantashqari asarni ilmiy tarjimadan ko'ra, badiiy tarjima bo'lib shakllanishi uchun harakat qilingan. Asar mukammalligi uchun bir necha nusxalardan foydalangan. Nihoyat, 2010-yilda ushbu asrning o'zbekcha tarjimasini V.Raxmonov va Ya.Egamova tomonidan amalgam oshirildi va xalqqa havola etildi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ushbu asar Muhammad Haydarning ikkinchi yirik asari hisoblanadi. Asar mo'g'uliston xoni Tug'luq Temurxondan to muallif tomonidan Kashmirni egallangunigacha bo'lgan davr oralig'ida Markaziy Osiyo, Mo'g'uliston, Sharqiy Turkiston, Dashti Qipchoq, Xuroson, Hindiston va Tibet hududlarida sodir bo'lgan voqealarning bayoni, shu hududlarning geografiyasi, iqlimi, o'simlik va hayvonot olami hamda shu davr kishilari, davlat arboblari, xonlari, amirlari faoliyatiga bag'ishlangan mufassal asardir. XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo va Mo'g'uliston tarixi bo'yicha nodir manba hisoblangan ushbu

⁹ Muhammad Haydar mirzo Tarixi Rashidiy. Sharq T.;2010 44-b

asarda shajarashunoslik masalalariga alohida e'tibor berilgan. Asarda podshoh va xonlarning olti sulola silsilasi ustalik bilan tuziladi va ularning tutashuv xalqlariga alohida ahamiyat beriladi: Temuriy, boburiy, shayboniy, mo'g'ul xonlari, qozoq xonlari va safaviylar shajaralari uzviy muntazam tarixiylikda yoritiladi.

Asarning asosiy qismi mo'g'ul xonlari tarixiga bag'ishlangan. Amir Temurga zamondosh mo'g'ul xoni Tug'luq Temurxondan boshlab XVI asrning yetmishinchi yillarigacha hukmronlik qilgan ushbu sulola shajaralari o'ta mufassalligi va haqqoniyligi bilan asarda o'z ifodasini topgan.

Muhammad Haydar mirzo mo'g'ul xonlari tarixini uch sababga ko'ra Tug'luq Temurxondan boshlaydi.

Birinchisi- Tig'luq Temurxongacha bo'lgan tarixiy voqealar mo'g'ullar tarixiga oid ko'plab asarlarda yozilgan-u, uning davri yoritilmagan, undan keyingi xonlar tarixi ham yoritilmagan.

Ikkinchisi- Tug'luq Temurxonga nasib etgan ulug'lik va saltanat hech bir keyingi xonga nasib etmagan.

Uchinchisi- Tug'luq Temurxon birinchi bo'lib islom dinini qabul qilgan.

Asar muallifi shu uch sabablarga ko'ra asarni Tug'luq Temurxonning xon bo'lib ko'tarilgani va islomni qabul qilib Mo'g'uliston davlatiga asos solgan davridan boshlaydi.

Shuningdek asarda Mo'g'uliston zamining kengligi, ob-havosi va Koshg'ar, Yorkand, Xo'tan viloyatlaridagi shahar , imorat, qabriston, sahro, bog'lar, daryolar, tog'-u cho'llari hamda bu joylardagi xalqlarning urf-odatlarini, rasm-u qoidalarini muallif imkon boricha o'z ko'rganlarini bayon qilishga harakat qilgan. Shunga alohida e'tibor qaratish kerakki, bu viloyatlarning ta'rifi va mo'g'ul xonlarining tarixi boshqa birorta kitobda tilga olinmagan. Garchi ba'zi tarixiy asarlarda berilgan bo'lsa ham ular ushbu asardagidek to'liq yoritib berolmaydi. "Tarixi Rashidiy"da bo'lsa, maxsus mo'g'ul xonlari haqidagi hikoyalar va Mo'g'ulistondagi voqealar shunchalik mufassal o'z ifodasini topganki, undan ortig'ini tasavvur qilish mumkin bo'lmasa kerak".¹⁰

¹⁰ Muhammad Haydar mirzo. Tarixi Rashidiy. Sharq T.; 2010. 8-b

Shu o'rinda aytib o'tganimiz, asar Tug'luq Temurxonning hokimiyat tepasiga kelishi tarixi bilan boshlangani bizga ma'lum. Lekin bu mavzu tarixchi olimlar o'rtasida ko'p bor muzokaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Ya'ni bir guruh tarixchilar Tug'luq Temur Chingizxon avlodi desa, bir guruhi esa bu fikrga qarshi chiqadi. Bu muzokara haliham o'z yechimini topgani yo'q. Mana shunaqa vaziyatda biz bevosita o'sha davr siyosiy hayoti va tarixini yoritib beruvchi manbalarga tayanamiz. Biz o'rganayotganimiz "Tarixi Rashidiy" asarida quyidagicha keltiriladi: Tug'luqning otasi Esan Bug'axonning ikkita xotini bo'lgan. Katta xotini Sotilmish xotun, ikkinchisi Menglixon edi. Sotilmish xotun tug'mas edi. Xon lashkarlari bilan urushga ketadi. Mo'g'ullarning qadimiy an'anasiga ko'ra eng katta xotin haramdagi ayollar ustidan hukm yurgizish huquqiga ega bo'ladi U kimni xohlasa haramda qoldirar, xohlamaganini istagan kishiga tortiq qilib yuborar edi. Sotilmish xotun Menglik Xotunning xondan homilador ekanligini bilin qolib hasadi keladi va uni ulug' amirlardan biri Shirovul do'xtuyga berib yuboradi. Xon yurishdan qaytib kelib Menglikni so'rganida Sotilmish Xotun:"men uni bir kishiga berib yubordim" dedi. Xon mo'g'ullarda odat shunday bo'lganligi uchun hech narsa demadi. Ko'p o'tmay Esan Bug'axon olamdan o'tdi. Mo'g'ullarda boshqa xon qolmadi; mo'g'ullar har biri o'z xohishicha yashay boshladi va ulus xaroblikka yuz tutdi. Shunda Esan Bug'axon davrida koshg'or hukmdori bo'lgan amir buloji (Pulatchi) Do'g'lot davlatda intizom o'rnatish uchun birorta xon topishga kirishdi. U Toshtemir ismli kishini Shirovul do'xtuy yoniga yubordi va Menglik holidan, uning bolasidan xabar olishni, agar o'g'il tug'ilgan bo'lsa, uni o'g'irlab olib kelishni unga topshirdi. Toshtemir butun Mo'g'uliston bo'ylab qidirdi. Shirovul do'xtuyni qidirib, u yerda Menglik va uning bolasi haqida surishtirdi. Menglik bir o'g'il tuqqan, Do'xtuydan ham bir o'g'li bor ular birga turishadi deb aytishdi. Xonning o'g'liga Tug'luq Temur deb, Shirovulning o'g'liga Inju Malik deb ism qo'yishgan. Toshtemir bir amallab Tug'luqni olib qochib Buloji huzuriga yo'l oldi. Bu vaqtda Buloji Oqsuvda edi. Toshtemur xonni olib qaytib kelayotganida Oqsuvga yaqin qolgan joyda bir karvonga hamroh bo'lishdi. Muz bilan qoplangan Muzot dovonidan

o'tishayotganda xon muzli daraga tushib ketadi. Buloji xon voqeasini karvondagi savdogarlardan biriga aytadi. Ular birgalikda muzli dara oldiga borishdi. O'sha savdogar pastga tushib xonni sog'-salomat topdi. Shu payt u xondan uzr so'rab dedi: "agar birinchi bo'lib siz yuqoriga chiqsangiz, ehtimolmeni tortib olishmas. Avval men chiqaman sizni bo'lsa so'zsiz tortib olishadi". Shu tariqa xonni yuqoriga chiqarib, birgalikda Amir Buloji oldiga, Oqsuvga kelishadi. Amir Buloji uni xon qilib ko'taradi.

Manbada keltirilgan ushbu rivoyat bo'yicha Tug'luq Temur shu tariqa hokimiyat tepasiga keladi. Tug'luq Temurni hokimiyat tepasiga kelishining turli xil muzokaralarga uchrashining sababi shundaki, aytib o'tilganidek, Tug'luq Temur xon saroyida emas, balki amir oilasida tug'ildi, amir Buloji esa davlatda intizom o'rnatish uchun xon topishga kirishadi va yuqoridagi hikoyatni to'qib chiqaradiki, Manglik Xotun Shirovul Do'xtuyga berib yuborilayotganda xomilador edi degan sababni keltirib Tug'luq Temurni xon qilib ko'taradi. Tug'luq Temur xon qilib ko'tarilgan bo'lsada lekin amalda hokimiyatni sipohsolr sifatida Amir Buloji boshqaradi.¹¹ Bu an'ana Amir Bulojidan keyin ham davom etadi. Amir Xudoydod Tug'luq Temur vafotidan keyin o'g'li Ilyosxo'jani xon ko'tarib, hokimiyat ishlari do'g'lotlar qo'lida, chig'atoylar esa nomiga xon edilar. Boshqacharoq aytganda, Amir Buloji Tug'luq Temurxon xonligiga asos slogan va Tug'luq Temurxon uning uchun to'qqizta imtiyozli fermon chiqargan. Bu imtiyozlarni Chingizxon Amir Buloji ajdodlariga bergan edi. Farmon bizning oilamiz qo'lida saqlangan men uni ko'rganman, deb yozadi Muhammad Haydar. Unda mo'g'ul tilida "Qunduzda bitilgan" deb yozilgan edi. Gap shundaki mo'g'ullar shu farmon tufayli Qunduzgacha bo'lgan hudud Tug'luq Temurxon tasarrufida bo'lganligini anglaydilar. Mo'g'ullarning og'zaki ma'lumotlariga ko'ra Amir Buloji xonni qalmoqlardan olib kelganida u o'n olti yoshda bo'lgan, o'n sakkiz yoshida xon bo'lgan. Yigirma yoshida islomni qabul qilgan.

¹¹ Muhammad Haydar mirzo. Tarixi Rashidiy. Sharq T.; 2010. 72-b.

Bu kitobda mo'g'ullarning islomno qabul qilganlaridan keyingi holati bayon etiladi. Shunday ekan Chig'atoy avlodidan bo'lgan Tug'luq Temurxonning islomni qabul qilgani haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tug'luq Temurxon qalmoqlardan olib kelingandan keyin 2 yil o'tib, bir kuni ov tashkil qiladi, hamma ovda qatnashsin, hech kim bo'yin tovlamasin, deb buyruq beradi. Ov paytida xizmatkotlari bir joyda bir nechta odam ovda qatnashmasdan o'tirganini ko'radi va ularni xonni oldiga olib borishadi. Xon nega buyrug'imni bajarmadinglar deb so'raydi. Ulardan biri Shayx Jamoliddin edi. U Katak shahridan yashardi, juda bilimli juma namozlarida odamlarga amri ma'ruf o'qirdi. U bir kuni xufton namoziga azon aytarkan, osmonda n qum yog'ilib, butun shaharni qoplayotganini ko'rdi. Qo'rqanlaridan u yerdan qochishga tushdilar. O'sha shahar hozir ham qum ostida yotipti. Ahyon-ahyonda shamol qumlarni uchirganda minoraning tepasi yoki gumbazning yuqori qismi ko'zga tashlanadi deb yozadi asar muallifi.

O'sha shahardan qochib kelayotganlar xonga shunday deb tushuntirishadi. Xon shu paytda bir necha itga to'ng'iz go'shtini yedirib turgan edi va g'azablanib shayxdan so'radi: "sen yaxshimi yoki mana bu itmi?" Shayx javob berdi: "agar iymonli bo'lsam men yaxshiroqman, bordiyu iymonsiz bo'lsam, it mendan yaxshiroq". Xon uning javobiga qiziqib qolib, Shayxni qarorgohga olib kelishlarini buyuradi. Shayx kelgach, xon undan so'radi: "U nima ekanki, o'shanga ega bo'lgan odam itdan yaxshiroq bo'ladi?" Bu "iymon" dedi Shayx va islom dini va musulmonchilikni aniq izohlab berdi. Xon yig'lab yubordi va agar men xon bo'lsam, o'shanda siz albatta, mening oldimga kelasiz va men so'zsiz musulmon bo'laman, dedi-da Shayxni hurmat-e'tibor bilan kuzatib qo'ydi.¹²

Bu voqeadan keyin Shayx olamdan o'tdi. Uning mavlono Arshadiddin ismli o'g'li bor edi, Shayx o'g'liga mana shu ishni vasiyat qilib qoldirdi.

Ko'p o'tmay Tug'luq Temur xon bo'ldi. Mavlono Arshadiddin o'sha zahoti Oqsuvdan Mo'g'ulistonga jo'nadi. Xon bilan uchrashdi. Xonni g'usl qildirib,

¹² O'sha asar.615-b

iymon mohiyatini tushuntirdi. Xon musulmon bo'ldi. Boshqalarni ham islomni qabul qilishga chorladilar. O'sha kuni bir yuzi oltmishming kishi musulmon bo'ldi. Xon o'zini xatna qildi. Shundan so'ng xon o'z ajdodlaridan farqli o'laroq dinning barqarorligi uchun harakat qildi.

Endi bevosita Mo'g'liston haqida to'xtaladigan bo'lsak, XV – XVI asrdagi Mo'g'liston degan jug'rofiy tushunchaga Xuroson, Movaraunnahr, hozirgi Qashg'ar, Badaxshon, Hindiston shimolidan butun Oltiy o'lkasi hududlari kirgan. Hozirgi geografiya bilan sobiq Mo'g'ulistonga (Mongoliya emas) qarashli yerlar: Shinjong avtonom rayoni yerlari, Qozog'istonning katta qismi, butun Oltoy o'lkasi, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston yerlari edi.

Mo'g'ullar saroyida va uylarida turkiy tilda gaplashishgan, saroyda tojik tiliga ham amal qilingan. O'zlarini mo'g'ul hisoblagan Sulton Mahmudxon, uning qizi Mo'g'ulxonim (Oyisha sulton xonim), Sulton Saidxon va Muhammad Haydar Mirzo she'rlari xuddi Boburnikiday eski o'zbek tilida yozilgan.

XVIII asrdan boshlab to hozirgacha dunyoning 10 dan ortiq tillariga, jumladan, ingliz, nemis, fransuz, xitoy, qozoq, turk, uyg'ur, rus, qirg'iz va boshqa tillarga tarjima qilingan o'z tariximiz va manaviyatimizning mumtoz manbai bo'lgan “Tarixi Rashidiy” ni endilikda o'zbek tilida o'qishga musharaf bo'ldik.

“Boburnoma ” asari bilan tenglashtirilgan “Tarixi Rashidiy” ma'lum manoda uning davomi, ushbu asarlar aksar hollarda bir – birini to'ldiradi. Chunki asardagi ma'lumotlar “Boburnoma”dagi ma'lumotlarni takrorlamasdan, balki uni to'ldirib keladi.

V. V. Bartold bu haqida shunday deydi: “Tarixi Rashidiy” ham “Boburnoma” kabi haqqoniyligi va xolisligi, jug'rofiy ma'lumotlar bayoni esa yorqin va aniqligi bilan ajralib turadi.

“Boburnoma” ni tarixiy asardan ko'ra ko'proq esdaliklar deb aytish mumkin “Tarixiy Rashidiy”da esa aksincha memuar asarga nisbatan tarixiylik ustunlik qiladi. Shu ma'noda Bobur ijodida adiblik salohiyati, “Tarixiy Rashidiy” muallifida esa tarixchilik iqtidori ustuvorlik qiladi. Bobur shaxsi “Boburnoma”

ning asosiy voqealarida boshdan-oyoq ishtirok etadi. Muhammad Haydar haqidagi ma'lumotlar "Tarixi Rashidiy" da ayrim boblardagina beriladi.

XV–XVI asrlar tarixi, etnografiyasi, geografiyasi, Xuroson Sharqiy Turkiston va boshqa o'lkalardagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy, mafkuraviy hayot haqida yozilgan ushbu asar undan foydalanuvchilar dunyoqarashini yanada kengaytiradi

Shunday ekan, Mirza Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asariga bebaho xazinadek qaralishi, uni faqatgina tarixiy tomondan emas, balki etnografik, xronologik, lingvistik, arxeologik, jug'rofiy, etnomadaniy yondashuvlar asosida keng tadqiq etilishi kerak deb o'ylaymiz. Zero bu asarda bir millat, bir xalq, bir mamlakat yoki bir hudud haqida emas, bu asar butun Osiyo xalqlari tarixi va boshqa sohalari haqida ma'lumot beradigan noyob manbadir.

1.2. Rashididdinning “Jome’ ut-tavorix” asarida Mo’g’ulistonga oid ma’lumotlar tahlili.

“Jome’ ut-tavorix” (“Tarixlar majmuasi”) asarining muallifi mashhur qomusiy olim, tarixchi, tilshunos, tabib va yirik davlat arbobi Rashididdin Fazlulloh ibn Imouddavla Abulxayr al-Hamadoniyydir. Uning ota-bobolari ham o’z davrining o’qimishli kishilaridan bo’lganlar. Masalan bobosi dastlab yirik qopmusiy olim Nosiriddin Tusiy bilan birgalikda Alamut qal’asi(Qazvinning shimoli-g’arbiy tarafida, Elburs tog’ida joylashgan mustahkam qal’a)da Ismoililar xizmatida bo’lgan, so’ng mo’g’u7llar tarafiga o’tib ketgan. Otasi Imoduddavla Abulxayr o’rtahol kishi bo’lib, Hamadonda tabibchilik bilan kun kechirgan, keyinchalik Elxoniylar saroyiga taklif qilinib, u yerda ham shu kasbi bilan shug’ullangan.

Rashididdin 1247-yilda Hamadonda tug’ilgan. Yoshligida yaxshi o’qib, ota kasbidan tashqari, ko’pgina ilmlarni – ilohiyot, tabiiy fanlarmumtoz adabiyot, tarix, geografiya va boshqa fanlarni puxta egallagan. Rashididdin 1298-yilgacha bo’lgan hayoti ya’ni vazir mansabiga tayinlangan davrga qadar bo’lgan hayoti haqida biz ancha kam ma’lumotga egamiz. Ma’lumki, Rashididdin Fazlulloh Abul Kayz Ali Hamadoniyy 1247-yil Hamadon shahrida tug’ulib, unchalik taniqli bo’lmagan olim oilasidan edi. U Elxon Abaqaxon davrida uning shaxsiy tabibi bo’lib xizmat qilgan. Rashididdin feodal tarqoqlik va ayirmachilik tarafdori bo’lgan ko’chmanchi turk-mo’g’ul katta yer egalaridan farqli o’laroq, o’troqlik hamda markaziy davlat muassasini mustahkamlash tarafdori edi. Oxiri Rashididdin elxoniylar saroyida hukm surgan fitna qurboni bo’ldi. Endigina taxtga o’tirgan Abu Sa’idxon (1317-1335) Rashididdinni saroydan chetlashtirdi. Oradan bir yil o’tib, u O’ljoytuxonni zaharlab o’ldirishda ayblanib, 1318-yilning 18-iyulida qatl etildi, barcha mol-mulki musodara qilindi. O’shanda uning Tabrizdagi 600 000 jild kitobga ega boy kutubxonasi ham talon-taroj qilindi.¹³

Katrmer tomonidan rad qilingan hamda V.V.Bartold va Ye. Vloshe ma’qullagan Rashididdinning yahudiylardan kelib chiqqanligi haqidagi an’anaviy fikr, aslida Rashididdinning dushmanlaridan kelib chiqqan ta’kidlarga asoslanadi.

¹³ Madraimov A, Fuzailova G. Manbashunoslik. O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, T.:2008.178-b.

Shu sababli Rashididdinning kelib chiqishi haqidagi masala ochiqlicha qoladi. Rashididdinning yozishmalaridan ma'lumki, ushbu tarixchi Shofe'iy mazhabiga mansub sunniy musulmon bo'lgan. Mo'g'ul xonlari huzurida xizmat qilgan musulmon peshvolarining ko'pchiligi shu mazhabda bo'lgan. Ismning shofe'iyilik mazhabi mahalliy fuqarolik birlashmalari va tashkilotlarida hukmron mafkura shaklida amal qilinishi tufayli Rashididdin ham bejizga o'zini ushbu mafkura tarafdori deb ko'rsatmagan. Bu gapni u o'z shaxsiy fikridan kelib chiqib aytgani, yoki bilvosita siyosiy vaziyatdan kelib chiqqanmi, amalda buning ahamiyati yo'q. Shuni ta'kidlash joizki, Rashid ad-Din talqin qilayotgan siyosiy tizim undan oldin ham, keyin ham mahalliy ma'muriyat va din vakillarining qiziqio'lari, shuningdek, islom g'oyaviy qobig'i bilan bog'liq edi.¹⁴

“Jome' ut-tavorix”da bayon qilinishicha, xijriy 654 (milodiy 1256) yildan e'tiboran Rashididdin o'zi, otasi hamda bobosi mo'g'ul xonlari huzurida doimiy xizmatni o'tab kelgan. Shuning uchun ham bo'lsa kerak, Rashididdin uzoq muddatli xizmat vazifasini ado etayotgan chog'da, o'sha davrning amaldorlari uchun qiyinchilik tug'dirmaganidek, uning uchun ham olim va saroy tabibi bo'lish imkoni bor edi. Aks holda vazir lavozimini egallashda uning qanday qilib ish tajribasiga ega ekanini tasavvur qilish mushkul. Jome' ut-tavorix”da (G'ozon xongacha bo'lgan moliyaviy ishlar bo'yicha faoliyati yuzasidan) keltiriladigan batafsil ma'lumotlar bizni o'ylashga majbur etadi: gap shundaki, Rashididdin o'sha paytlardayoq ushbu xizmat vazifasini o'tayotib, G'ozonxonning faoliyatidagi barcha ikir-chikirlaru, xufyona ishlardin xabardor edi.

Rashididdinning yozishmalari tadqiqotchilar uchun hali xamon siriligicha qolgan bir paytda V.V.Bartold 1912 yilda shunday deb yozadi: “G'ozonxon hukmronligi davrida amalga oshirilgan moliyaviy va boshqa shu kabi islohotlar qay darajada Rashididdinning o'zi tomonidan amalga oshirilgan, degan savolga Rashididdinning amallarida bir qoniqarli javob topa olmayapmiz”.

Rashididdinning yozishmalarini o'rganish biz uchun mumkin bo'lganidan so'ng, hech bir shubhasiz aytishimiz mumkinki, G'ozonxon islohotlarining

¹⁴ Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Издательство академии Наук. Том I. М. 1952. 8-б.

umumiy tuzulmasi va ularning hayotni tadbiq etuvchi, darhaqiqat, Rashididdinning samarasi o'laroq bo'lgan ekan.

Gap shundaki, "Jome' ut-tavorix"da u o'zini va boshqa amaldorlarini yosh, oqil mo'g'ul xonining ko'rsatmalarini og'ishmay ijro etuvchi tarzida tasvirlagan. Rashididdinning siyosiy betaraflik va kuchli xonlik hokimiyati tarafdori bo'lgan. U mahalliy amaldorlar va din peshvolariga tayangan holda xonlikda feodal tarqoqlikni yuzaga keltirib, uni harbiy feodal boshqarma usuliga o'tkazmoqchi bo'lgan mo'g'ul-turk harbiy ko'chmanchi avtoritetlarga qarshi kurash olib bordi. Isboti: bunday ruh uning "Jome' ut-tavorix"da va yozishmalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning betaraflik siyosati feodal jamiyati rivojlanishi uchun kuchli asos bo'la olmadi, chunonchi, mo'g'ul-turk harbiy amaldorlari va hukumatga tegishli bo'lmagan mahalliy amaldorlar tomonidan bir necha bor qattiq qoralandi va oxir oqibat omadsizlikka yuz tutdi. Rashididdinning siyosiy tizimi mo'g'ullargacha bo'lgan "Eron" davlatchiligi va mahalliy vatanparvarlik g'oyalariga asoslanadi. Mo'g'ul elxoni uchun yozilgan "Jome' ut-tavorix"da bu tendensiya asarning ba'zi joylarida, shunda ham, yashirin tarzda uchraydi. Shunga qaramasdan Rashididdinning yarim rasmiy yozishmalari ancha ochiqcha yozilgan. Unda u mo'g'ullar haqqida ochiq oydin so'zlab, ularni zo'rovon deb ta'riflaydi. Xulagular davlatini u odatda "Eron saltanati" deb nomlaydi. Kichik Osiyo Kesariyasining din peshvolari yozgan maktubida u mo'g'ul elxonini "Xazrati oliylari, xalifalikning rahnamosi Eron Xusravi va Kayoniylar saltanatining vorisi" deb yozadi.

Rashididdinning ijtimoiy qiyofasi hech qanday shubha uyg'otmaydi. U mahalliy fuqarolik tashkiloti feodallar sinfidan bo'lgan. Uning darvesh shayxi va din peshvolari bilan ko'p tomonlama aloqalari mavjud edi. Boshqa ko'pgina feodallar singari u ham chet ko'tara savdosi bilan shug'ullanardi. G'ozonxon va Uljaytuxonlarning hukmronligi davrida yashab o'tgan Rashididdin yosh elxon Abu Sayid Bahodirxon davrida, avval, nafaqaga chiqadi, so'ng esa o'z dushmanlari tomonidan Uljaytuxonni zaharlashda ayblanib, (o'sha paytda u Uljaytuxonning saroy tabibi bo'lgan) o'z farzandlari bilan qo'shib qatl etiladi. (Qilich bilan naq ikkiga bo'lib chopib tashlanadi).

O‘shandan so‘ng unga tegishli bo‘lgan barcha mol-mulk musodara va talon-taroj qilinadi. Ammo, 1327-yilda amir Cho‘binning qatl etilganidan so‘ng Rashididdinning yerlari shu jumladan, Rub‘i Rashidiy ham uning farzandlariga qaytarilib, uning nomi qayta oqlandi. Shuni aytish kerakki, uning dahshatli o‘limi o‘z-o‘zidan yoki qandaydir tasodif tufayli emas edi. Uning shu holga kelishining sababchisi uning o‘sha paytdagi dushmanlari, shu jumladan uning vazirlik bo‘yicha ham kasbi Tojiddin Alishoh G‘iloniyning amir Cho‘binni yo‘ldan urib, shu yo‘lga da‘vat etishi bo‘lgan. Amir Cho‘bin esa turk-mo‘g‘ul harbiy amaldorlarining yulduz urug‘ining tegishli sardorlaridan bo‘lib, voris sanalardi.

Rashididdin tarixda o‘zining yirik asarlari bilan ham nom qoldirdi. Ilohiyot ilmining ayrim masalalariga bag‘ishlangan “Al-majmuot ar-Rashidiya” (“Rashididdinning majmualari”), tibbiyotga oid “Al-osor va-l-ihya” (“Tirik narsalarning qoldiqlari”), “Bayon al-haqoyiq” (“Haqiqatlar bayoni”) va nihoyat, jahon tarixini o‘z ichiga olgan “Jome’ ut-tavorix” uning qalamiga mansub asarlar jumlasidandir.

Olimning bizning zamonimizgacha yetib kelgan birdan-bir asari ana shu “Jome’ ut-tavorix” bo‘lib, u o‘rta asr tarixnavisligining o‘ziga xos noyob obidasi hisoblanadi. Bu kitob o‘rta asr Sharq tarixchiligida yangi an‘anani boshlab bergan asar. Unda umumiy tarix sifatida musulmon mamlakatlari tarixi bilan birga, G‘arb mamlakatlari, Xitoy hamda Hindiston tarixini ham yoritishga intilgan, Sharq mamlakatlari tarixi umum jahon tarixining bir qismi, deb hisoblangan.

“Jome’ ut-tavorix” asari 1301-1311-yillar orasida G‘ozonxonning topshirig‘i bilan yozilgan.

Rashididdinning “Jome’ ut-tavorix” asari Sharq va G‘arb olimlarining e‘tiborini ko‘pdan beri jalb etib kelyapti. XV asrda Eronning yirik tarixchilaridan biri “Jome’ ut-tavorix”ning davomini yozib, Eron tarixini 1371-yilgacha davom ettirgan. Hofizi Abruning bu asari “Zayli jome’ ut-tavorix” (“Jome’ ut-tavorix”ga qo‘shimcha) nomi bilan mashhur.¹⁵

¹⁵ Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. O‘qituvchi. T.: 1994. 417-b.

Asar 1937-1938 yillari prof. Xonbobo Bayoniy tomonidan Tehronda nashr etilgan. Asarning birinchi qismi, ya'ni "Tarixi G'ozoniy" fransuz sharqshunos olimi M.Kartmer (1836), E.Bloshe (1911) va chex olimi K.Yan (1941) tomonidan chop etilgan. Rus sharqshunosi I.N.Beryozin "Tarixi G'ozoniy"ni izchil o'rgandi va uning forsha matni bilan ruscha tarjimasini nashr ettirdi (1858, 1868, 1888). "Jome' ut-tavorix" rus sharqshunos olimlaridan A.A.Romaskevich, Y.E.Arendslar tarafidan, ruscha izohi bilan 1968-yilda Moskvada nashr qilindi.¹⁶

Asar uch qismdan iborat:

Birinchi qismda Mo'g'ullar va ular asos solgan davlatlar Ulug' yurt, ya'ni Mo'g'uliston, Elxoniylar davlati hamda mo'g'ullar asoratiga tushib qolgan mamlakatlar, Shimoliy Xitoy, O'rta Osiyo va Yaqin hamda O'rta Sharq mamlakatlari xalqlarining mo'g'ul istilosigacha bo'lgan qisqacha tarixi;

Ikkinchi qismda Sharq mamlakatlari xalqlarining islomiyatdan avvalgi tarixi, arab xalifdaligi va uning tarkibida tashkil topgan G'aznaviylar imperiyasi, Saljuqiylar davlati, xorazmshohlar davlati tarixi; Xitoy, qadimgi yahudiylar, franklar, Rim imperiyasi va Hindiston tarixi;

Uchinchi qismda Yer kurrasi hamda yetti iqlim mamlakatlarining geografik holati yoritilgan. Afsuski, asarning so'nggi uchichi qismi saqlanmagan. Qo'lyozma 1318-yil Rashididinning shaxsiy kutubxonasi talon-taroj qilingan vaqtlarda yo'qolgan bo'lishi mumkin.

Asarning turk-mog'ul xalqlari tarixini o'z ichiga olgan qismi Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Kitobning O'rta Osiyo, Eron va Kavkaz orti xalqlarining XIII asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid qismlari ham benihoyatda qimmatlidir.

Birinchi qism ayni paytda islom hukmdorlari hukmdori O'ljaytu sultonning o'z ukasi bo'lmish G'ozonxon nomiga atab yozdirilgan. Bu jildda turk-mog'ul xalqlarining Chingizxongacha bo'lgan tarixi, Chingizxon tuzgan yirik feodal davlat, Chingizxonning yurishlari, unga qaram bo'lgan mamlakatlar tarixi, XII-XIII asrlarda Shimoli-sharqiy Osiyoda ko'chib yurgan turk va mo'g'ul

¹⁶ Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. O'qituvchi. T.: 1994. 418-b.

qabilalarining kelib chiqishi va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rnini keng sharxlanib, G'ozonxon (1295-1304) o'tkazgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar batafsil yoritilgan. Asarning ikkinchi qismi Sulton O'ljoytuxon (1304-1317)ning topshirig'i bilan elxoniylar saroyida istiqomat qilib turgan chet ellik olimlar (kashmirlik baxshi Kamalashri, xitoylik olim Li Da-chji, fransiyalik bir monax, ikkita fors olimi va boshqalar) ishtirokida yozilgan. Asarda mo'g'ul istilosiga qadar musulmon olamining tarixi, shuningdek, yahudiylar, Ovro'po, Vizantiya, Rim, Xitoy va Hindiston tarixi bayon etilgan. Uchinchi qismi jug'rofiy asar bo'lib, "Yetti iqlim", ya'ni olimning inson istiqomat qilib turgan to'rt dan bir qismi tavsifiga bag'ishlangan. Bu qism bizgacha yetib kelmagan.

Birinchi bob tarix sahnasida turk xalqlarining paydo bo'lishi va ularning shajaralanishi-yu, har bir xalq ajdodlarining hayoti haqida batafsil ma'lumot beradi. O'z navbatida bu bob debocha (kirish qismi) va to'rt fasldan iborat.

Ikkinchi bobda mo'g'ul hoqonlari, turk hoqonlari va boshqa xalqlar haqida gap ketadi. U esa ikki fasldan tashkil topgan.

Ikkinchi jild, xoqonlar xoqoni O'ljaytu sulton buyrug'i bilan o'zining muqaddas noibiga bag'ishlab yozdirilgan. U ikki bobdan tarkib topgan.

Birinchi bob islom sultoni O'ljaytuxon tavallud vaqtidan to hozirgi kungacha, ya'ni ushbu kitob muqovalanayotgan vaqtgacha davrni o'z ichiga qamrab oladi. Bu esa hijriy 700- yilga to'g'ri keladi.

Ikkinchi bob ikki qismdan iborat:

Birinchi qism ikki fasldan iborat.

Ikkinchi qism esa islom sultoni O'ljaytuxonning tarixiga tegishli bo'lib, hoqonning so'nggi kunlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi jildda asosan geografik va topografik chizg'ilar va ma'lumotlarga bag'ishlangan. Unda turli davlatlarga olib boradigan yo'llar, mamlakatlar orasidagi masofalar nisbiy darajada bo'lsa ham muxtasar tarzda bayon etilgan.

Qadimgi davrlarda ushbu qabilalarning har biri alohida nomga ega edi; har bir qabilaning o'z amiri va oqsoqoli bo'lgan. Va har bir qabila shajaralarida, urli

urugʻlarni keltirib chiqargan, jumladan jaloyir uyrat, tatar va boshqalar boʻlib, quyida ular haqida batafsil tanishib chiqamiz.

Ularning yurtlari va maqomotlari (turar joylari) ma'lum joylarda joylashgan edi. Ularning tili va tashqi koʻrinishlari moʻgʻullar tili va koʻrinishiga juda yaqin edi, chunki qadimgi moʻgʻullarning oʻzi ham turkiy qabilalarga mansub edi. Hozirgi paytga kelib ularning oʻsha davrdagi kuch qudrati va egallagan salmogʻi tufayli koʻpgina urugʻ va qabilalar aynan shu nom ostida yuritilgan.

Yuqorida zikr etilgan urugʻ va qabilalar aynan shu nom ostida yuritiladi.

Jaloyir qabilasi (urugʻi). Oldingi paytlarda bu qabilaning soni koʻpchilikni tashkil etadi. Uning har bir shajaraviy boʻlinmasi oʻz amiri va boshligʻiga ega edi. Chingizxon davrida, shuningdek, ayni damda ham Turon va Eronda bu qabiladan juda koʻp amrlar boʻlgan va hozirda bor. Ular yashash joyining bir qismi Onon daryosi atroflarida joylashgan edi.¹⁷

Rivoyat qilinishicha, qadimgi davrda jaloyirlar xitoyliklarning qoʻshinlari tomonidan shunday qattiq zarbaga uchragan ekanki, jaloyirlarning faqatgina kichik bir qismi jon saqlab qolishga musharraf boʻlgan. Qochib ketayotib, ular Dutum-Mananning xotini Manulinni oʻldirishadi.

Qoʻlga olingan jaloyirlarni soʻrogʻlab, nega ular bunday kechirib boʻlmas jinoyatga qoʻl urishgani yuzasidan qattiq soʻroq qilindilar. Va shu sababdan ularning ma'lum qismi qatl etildi, ma'lum bir qismi esa Dutum Manonning ikkinchi oʻgʻliga, Qaydu xon va uning farzandlari va qarindoshlariga qul qilib boʻlib olindi. Bu qul va asirlar moʻgʻul xonlaridan avloddan avlodga oʻtib, oxir oqibat, Chingizxongacha yetib keladi. Chingizxon va uning avlodlari davrida qabila vakillarining koʻpchiligi oʻziga xos sabablariga koʻra hurmatga sazovor, taniqli kishilar boʻlib yetishdi, hatto baʼzilari amir darajasiga ham koʻtarilgan.

Aytishlaricha, ularning yashash yurtlari Qoraqurumdagi Qima hududida joylashgan ekan. Ular shunchalik darajada vafodor edilarki, hatto uygʻurlar xoni boʻlmish Goʻrxonning nortuyalari yoniga yogʻ-moy qoʻshib berishgan. Shu sababli ularni belagi nomi bilan chaqirishgan. Ushbu jaloyir urugʻi oʻnta shajaradan iborat

¹⁷ Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Издательство академии Наук. Том I. М. 1952. 12-б.

o‘lib, uning alohida har bir shajarasi ko‘p sonli xalqni tashkil etardi. Ular quyidagi tartibda joylashadi: jat (jayt), tuqaraun (tuqraut), ko‘ngsaut (ko‘ngsaid), qumsovt (qumovut), uyot, nilkon (bilkon), qurqin (quqir), to‘lang‘it, to‘ri (bo‘ri), shonqut (so‘ngqut).

Chingizxon davrida barcha jaloyir urug‘lari ichida eng taniqli va eng ulug‘i Muqaligo‘yon bo‘lib, u jat xalqidan edi. Chingizxon qo‘shinining butun boshli so‘l qanoti faqatgina uni tan olardi. Uning urug‘doshlarini ham go‘yon deb chaqirishardi; go‘yon xitoycha govan nomidan tarjima qilinganda ulug‘ xoqon deb yuritiladi. Chingizxon uni Qoraun-Jidun degan joyda urushga qoldirganida, xitoylar unga bu laqabni berishgan.

O‘sha mamlakatda (ya'ni Eronda) jaloyirlar urug‘idan mingboshi amir Jarqun va uning akasi Umug bor edi. Chingizxon davrida Jo‘chi-Tarmali va uning akasi Jo‘chi-Chourqonlar bo‘lganlar. Shular tufayli Chingizxon va toyjiutlar o‘rtasida nizo kelib chiqqan. Yuqorida nomi zikr etilgan Jo‘chi-Tarmolining beshta o‘g‘li bor edi: Qutuqtu, Qutuqdur, Qundag‘ay, Ilga va Erlan.

Qutuqtu farzandlaridan biri Olqun mingkishilik qo‘shinga boshchilik qilardi. Qutuqdurning farzandlari Jag‘ay avlodaridan edi. O‘sha farzandlaridan Bulandur va Bo‘raklar Abag‘xon huzuriga zotdor otlardan olib kelish uchun elchi qilib boradilar. Ularning kelganini eshitgan Abag‘xon ikkalasini ham darhol ushlashni buyuradi va deydi: “Sen bu yerga o‘tgan safar bir makr bilan kelgan eding, yana keldingmi?!” elchi esa unga javoban: “Qulni jo‘natganimizda, u yerda qanday vaziyat bo‘lishini oldindan bilmagan edik”. So‘ngra esa uni tabir qamoqxonasiga qamash haqida yuqoridan buyruq keladi va u o‘sha yerda qoladi. Uning farzandlaridan Dilxe bo‘lib, u Jiladadir.

Qundag‘oyning o‘g‘li Qurchi-Bug‘un Gruzi shohi bo‘lgan. Bug‘unning o‘g‘li Timur Buka esa shoh Horband davrida quachi (quoldor) bo‘lib xizmat qilgan.

Ilgay no‘yon buyuk amir bo‘lgan; u bu yerga (Eronga) Xulaguxon bilan birga kelgan; u juda ham katta nom qozongan edi va uning, o‘z navbatida, o‘nta o‘g‘li bo‘lgan.

To'ng'ich o'g'li To'g'on Mo'g'ulistonda qoldi va bu yerga kelmadi. To'g'onning ikki o'g'li bor edi: Ko'nji va Uzun, ular bu yerga (Eranga) keldilar. Ikkinchi o'g'li - Shinktur-no'yon, uning o'g'illari: to'ng'ichi - Jintu, ikkinchisi - Jila, uchinchisi - Jitou, to'rtinchisi - Xondu, yuyeshinchisi - Takna, oltinchisi - Uquna.¹⁸

Uchinchi o'g'il - To'g'on-Boju-Naqarboxom; uning ikki farzandi bor edi: Qutan va Kunjuqa. Kunjuqning Abu Bakr ismli o'g'li amir xisoblanib, Xurosonda Xorband xuzuridadir.

To'rtinchi o'g'li - Tengqiday, uning o'g'li - Itqun-Bakin-Qshubaxam.

Beshinchi o'g'li Tuqu (Qutu), uning o'g'li - Xusayn.

Oltinchi o'g'li - Oqdosh o'n bir yoshda edi. U o'sha yoshda Oltin O'rda xoni Berka bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan.

Yettinchi o'g'il - Jalayirtoq, uning o'g'li Qora Buka Suri xuzurida xizmat qiladi.

Sakkinzinchi o'g'il - Tog'on Buka, uning o'g'illari: Jalayirtoy, Yag'lan va Jilonjilar.

To'qqizinchi o'g'il - Urugtu Abag'xonning quroldori bo'lgan va Kichik Osiyo (Rim)da bo'lgan jangda Tog'u bilan birga halok bo'lgan. Uning o'g'li Oqbol Kinjatu huzurida xizmat qilgan. Keyinchalik esa qandaydir aybi tufayli uni o'lim jazosiga hukm qilgan.

O'ninchi o'g'li - Oqbuka o'sha Kunjatu huzurida amir bo'lgan. Baydoning qo'lidan o'lim topgan. Uning farzandlari Husayn qo'rg'on, Musoyil va Udunji.

Bu o'nta o'g'ildan uchta - Shiqtur, To'g'on va To'g'on-Buka - Muqlun (Tuqlun) ismli bir onadan bo'lishgan. Jaloyir urug'idan bo'lgan Qadan ismli boshqa bir amir Chingizxon huzurida xizmat qilgan, uning Iluq ismli o'g'li bor edi. Chingizxon Iluqni qo'shin bilan birga o'z o'g'li Ugaday qoonga topshiradi. Xolbuki, u Ugaday qoonning yoshlikdagi otabegi (tog'asi) bo'lgan edi va hatto ma'lum muddat otaliqqa ham olgan edi. Ugaday qoon davrida Iluq katta obro'ga ega edi va shu bilan birga qo'shin sarkardasi ham edi. Rivoyat qilishlaricha, amir

¹⁸ Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Издательство академии Наук. Том I. М. 1952. 13-6

Arg'unning otasi nochor kunda o'z o'g'li Arg'unni Qadanga bir mol soni go'shti evaziga sotib yuborgan ekan.

Qadan o'z o'g'illaridan birini Ugaday qoon tungi soqchilikka borganida, unga yordamchi sifatida Arg'unni tayinlaydi. Arg'un uning xos xizmatchisi va quli edi. Arg'un juda layoqatli, tadbirkor va diplomatik xususiyatlarga ega bo'ladi.

Qayd Abag'xon huzuriga Iluq no'yonning o'g'li Donishmand ismli elchini jo'natadi. Iluqning Eljiday ismli ukasi bo'lib, u o'z akasining jo'rasiga yaqinlashmoqchi bo'ladi. Iluq uni o'ldirmoqchi bo'lganida, Eljiday undan qochib Ugaday qoon qanoti ostida jon saqlaydi. Ugaday uni Iluqdan so'rab boradi va Iluq ukasini unga tortiq qilib yuboradi. U Eljidoyni Shiki-Kutuku bilan birga doimiy yordamchi va maslahatchisi qilib tarbiyalaydi. Keyinchalik u saroyning barcha ikir-chikirlarini o'rganib, yuksak hurmatga ega bo'lgan amirlardan biriga aylanadi.

Zero, Chingizxon aytganki: “Agarda mening urug'imda biror kim ahdlashuv bitimini o'zgartirsa, uni jonidan mahrum etishga zinhor shoshilmang, avval barcha og'a va inilar bilan o'zaro muzokara qiling”. Nega sizlar Oltalun qoonni o'ldirdingiz? Hatto Ugaday qoon ham o'z davrida Shiramuning xoqon bo'lishi kerakligini ta'kidlagan edi va qaysi esingiz bilan hukumatni Guyukxonga topshirdingiz?”.

Eljiday bu so'zlarni eshitganidan so'ng, dedi: “Unday bo'lsa, haq biz tomondadir”. Bu gaplarga quyida batafsil sharh beriladi.

Mangu qoon davrida jat urug'idan bo'lmish Munqasar-no'yon buyuk amir va katta qozi lavozimini egallardi. Uning ko'tarilish va istiqboli sababi shunaqa bayon etiladi. Mangu qoon va otasi Tuluyxon o'z qo'shini bilan birgalikda qipchoqlar ustiga yurish qilib, ularni yengganida, Munqasar ko'yon o'sha jangda yuksak matonat va jasorat ko'rsatgan edi. Mangu qoon qipchoqlarni unga topshirdi va u ularni xon huzuriga olib ketdi. Va bu borada u yaxshigina jonkuyarlik qildi. Yana, bundan tashqari o'sha kezlarda Guyukxonning avlodlari Mangu qoonga qarshi fitna uyushtirganlarida, oliy qozi lavozimidagi Munqasar noyon, yuzxotir bo'lsa ham, ko'ngilchanlikka yo'l qo'ymay, aybdorlarning jazosini berdi. Mangu qoon

mangʻitlarga qarshi urush olib borganida ham Munqasar u bilan birga edi, lekin oʻsha jangda u halok boʻldi.

Uning farzandlari bu saltanatda (Eronda) Xonduqur noyon boʻlgan. Oʻshanda Mangu qoon uni oʻn minglik qoʻshin tuzishga yuboradi. Uning shuningdek, Qurmishi, Il-timur va boshqa farzandlari bor edi. Oyrat urugʻidan Xulaguxon va Oʻqloy qurchilar kelib, qoʻshinga nazoratchi etib tayinlandi. Uning farzandlari Aruq va Bukalar boʻlib, ular Abagʻxon huzurida xizmat qilishgan. Bir safar Aruq buyuk hoqon huzuriga elchi boʻlib borganida, u yerdan koʻk tamgʻa (xonning koʻk tamgʻasi bosilgan faxriy yorliq) olib keladi. Shundan soʻng, Abagʻxonning buyrugʻiga binoan u amir lavozimiga tayinlandi, Buka esa oldiniga tamgʻachilik va moʻynalar omborxonasida nazoratchi boʻlgan. Ahmad va Argʻunxon davrida esa u muhim vazirlardan biriga aylandi.¹⁹

Bularning qarindoshlaridan Qipchoq va Qipchoqning avlodlari bor edi: Gʻozon, Ishigʻ-Toʻgʻli va Oynabeklar Gʻozonga Boʻragʻan va Ugʻulning toʻrt mingtasi topshiriladi.

Tugʻuraun urugʻidan boʻlgan kezda qatl qilinganlar; Boltuning akasi Iso edi. Mingboshi amir hisoblangan amir Bartos esa jalayir urugʻidan boʻlgan.

Chingizxon davrida Burka ismli boshqa bir amir boʻlgan. Chingizxon uni va Jaba hamda Subadaylarga hukumatni topshiradi. Uning oʻgʻli Naurchi xonning bitikchisi (mirzosi) hisoblangan, undan oldinroq esa Nikudarning kotibi boʻlgan.

Chingizxon davrida uning huzuridagi qoʻshinning soʻng qanotida mavjud boʻlgan barcha mingboshi amirlar orasida Bolanoʻyon ham bor edi.

Sulton Jaloliddin Sind daryosida qochib ketganida, Chingizxon uning ortidan Hindistonga Bolanoʻyonning qoʻshinini yuborgan. Sultonni topishning uddasidan chiqqan olmagan Bolanoʻyon Hindistonning maʼlum bir qismini talon-taroj qilib, yana ortga, Chingizxon xizmatiga qaytadi. Xubilay xon davrida Boʻlanoʻyon oʻgʻillaridan biri boʻlmish Makuy uning oʻrnini egalladi. Buyuk xoqon nomidan kelgan elchi Axin ham uning qarindoshi edi.

¹⁹ Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Издательство академии Наук. Том I. М. 1952. 15-б

Asarning ayrim qismlari Katrmer(1836), E.Bloshe(1911), K.Yan,I.N.Berezin tomonidan rus, fransuz hamda nemis tillariga taarjima qilingan va forsha matni, so'zboshi bilan chop qilingan. Uning o'zbek tiliga qilingan ikkita tarjimasi bor. Ulardan biri Shayboniylardan Ko'chkinchixonning topshirig'i bilan Muhammad Ali ibn darvish Buxoriy tomonidan qilingan va muqaddima va uch jildidan iborat. Bu tarjimaning noyob qo'lyozmasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 2-tartib raqami ostida saqlanmoqda. Ikkinchi tarjima esa 1556-yili Niso shahrida Solur bobo ibn Qul Ali tomonidan Urganch hokimi Ali Sultonning buyrug'i bilan bajarilgan bo'lib, uning qo'lyozma nusxasi Ashxobodda Turkmaniston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida saqlanadi.²⁰

“Jome’ ut-tavorix” asarining to'liq ruscha tarjimasi 7 nafar mo'tabar qo'lyozmalar asosida 1946-1960 yillarda Sankt-Peterburgda amalga oshirilgan.

Ushbu nodir manba mo'g'ullar tarixini yoritishda yordam beradigan muhim manbalardan sanaladi.

²⁰ Madraimov A, Fuzailova G. Manbashunoslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, T.:2008.178-b.

1.3. Mirzo Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus" asari tahlili.

Tarixda o'tgan shaxslar xususida fikr yuritganda Alisher Navoiyning mana bu satrlari beixtiyor xotirga keladi:

Bu gulshan ichraki yo'qdir baqo guliga sabot,

Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bila ot.

Feodal sinf namoyandasi, toju taxt sohibi, buyuk o'zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi, asl ismi Muhammad Tarag'ay bo'lmish Mirzo Ulug'bek 1394-yil 22-martda Sultoniya shahrida Amir Temurning "besh yillik yurish"i vaqtida tug'ilgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida yozilishicha: "Amir Temur huzuriga chopar kelib, Ulug'bekning tug'ilgani va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo'lishini bashorat qilganlari xushxabarani yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qal'asi qamalini to'xtatib xalqiga yuklangan to'lovni bekor qiladi".²¹ Amir Temur Ulug'bek tarbiyasiga alohida e'tibor bergan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan. Ulug'bek Amir Temurning xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlarida ishtirok etgan.

Ulug'bek O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini o'rta asr sharoyitida dunyo fanining eng yuqori pog'onasiga olib chiqdi. Fan va madaniyat tarixida so'nmas iz qoldirgan Ulug'bekning ilmiy merosi uning "Zij"idir. Bu asar sayyoralar, Quyosh va Oy harakatini talqin qilish, yulduzlar katalogi va unda qo'llanilgan matematik usullari bo'yicha o'rta asrlardagi astronomik asarlarning eng mukammali hisoblanadi.

Mirzo Ulug'bek fanning juda ko'p sohalari, xususan matematika, falakiyot, musiqashunoslik va tarix ilmlari bo'yicha zabardast olim, ilm-fan, madaniyatning ulkan homiysi sifatida abad ul-abad tarixda qoldi. Yaqin yillargacha Ulug'bek faqat astronom va matematik deb hisoblanardi. Lekin XX asr oxirida uning ijodi serqirra bo'lib, u tarix, shariyat, musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi.

²¹ Milliy ensiklopediya. Davlat ilmiy nashriyoti. Tom 9. T.2003.75-b

Mashhad binolarining birida Ulug'bek qalamiga mansub quyidagi bayt topilgan.

Harchand husn mulki sening hukmingda bo'lsa ham,

Sho'xlik qilmagilki sen uning nazari ostidasen.²²

Olimning merosi XVII asrdan beri butun dunyo ilmiy jamoatchiligining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilib kelyapti. Mirzo Ulug'bek va u qoldirgan merosni o'rganishda bizning mamlakatimizda ham, xorijiy yurtlarda ham anchagina asarlar yaratildi.

Mirzo Ulug'bek riyoziyot, falakiyot, musiqashunoslik va tarix ilmlari sohasida qalam tebratgan olim. Ulug'bekning tarix ilmida yozilgan asari esa "Tarix-i arba' ulus"dir. Bu asar u yaratgan asarlar orasida alohida o'rin tutadi. Tarixchi Mirza Muhammad Haydar "Tarixi Rashidiy" asarida "Mirzo Ulug'bek tarixnavis donishmand, "To'rt ulus tarixini yozib qoldirgan edi" deb yozgan. Ulug'bekning turkiyda yozgan "Tarixi arba' ulus" asari Chingizxon bosib olgan mamlakatlarning XIII-XIV asrlar 1-yarmidagi siyosiy hayotini o'rganishda muhim manbadir.

Avvalambor shuni aytish kerakki, «Tarix-i arba' ulus» Mirzo Ulugbekning ilmiy rahbarligi va shaxsan ishtirokida yaratilgan. Asar 1425 yili yozib tamomlangan.

Asar "Ulus-a arba'-yi Chingiziy" ("Chingiziylarning to'rt ulusi") va "Tarix-i arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") nomlari bilan mashhur. Lekin, Ovrupo sharqshunoslari orasida ushbu asarni birinchilar qatori o'rgangan va uning qisqartirilgan inglizcha tarjimasini e'lon qilgan polkovnik Mayls, yetarli asosi bo'lmagani holda bu kitobni "Shajarat ul-atrok" ("Turk (hoqon)larining shajarasi") deb ataydi. Chuqur va atroflicha o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, asarning faqat Yofas o'g'lon va uning o'g'li Turkxon hamda farzandlari tatar-mo'g'ul bilan turk tabaqalari, shuningdek, ularning podsholarigina "Shajarat ul-atrok" asosida yozilgan, xolos. Asarning Chingizxonning ulug' ajdodi Buzunjor qoondan va Movarounnahrni XIII-XIV asrning birinchi yarmida idora qilgan Chig'atoyxon

²² Milliy ensiklopediya. Davlat ilmiy nashriyoti. Tom 9. T.2003. 78-b.

avlodi tarixini o'z ichiga olgan qismi "Ulus-i arba'-yi Chingiziy" yoki "Tarix-i arb'a ulus" deb ataladi. Rus sharqshunos olimi V.V.Bartold bu asarga ko'plab tanqidiy fikrlar bildirgan. Olim o'zining bir qator ilmiy risolalari xususan "Turkiston mo'g'ul bosqinchiligi davrida", "Ulug'bek va uning davri"da Ulug'bekning mazkur asaridan manba sifatida foydalangan. Lekin uni muhim tarixiy manbalar qatoriga qo'shmaydi. U bunday deb yozadi: "Shohruhning o'g'li va taxt vorisi Ulug'bek "To'rt ulus tarixi"ni yozgan. Asar o'z nomiga ko'ra mo'g'ullar imperiyasining to'liq tarixini o'z ichiga oladi. Ulug'bekning bu asari bizgacha yetib kelmagan, lekin ba'zi manbalarda, xususan Xondamirning "Habib us-siyar"ida undan olingan parchalar uchraydi. Bu parchalardan ko'rinib turibdiki, mo'g'ullar davlati tarixi Xondamir yashagan davrgacha bayon qilingan. Olimning boshqa bir asarida esa mana bu gapni o'qiymiz: "Ulug'bek qalamiga taalluqli deb hisoblangan tarixiy asar ehtimol, adabiy manba va tarixni tanqidiy o'rganish uchun material sifatida birmuncha qiziqish uyg'otishi mumkin, lekin mazkur asar nusxasi topilganda ham mo'g'ullar imperiyasi yoki uning inqirozidan so'ng tashkil topgan davlatlar tarixiga oid bo'lgan mavjud ma'lumotlarni boyitadi, deb aytish qiyin". "Tarix-i arba' ulus"ga bunday munosabatda bo'lishning sababi ikkita, deb aytadi B.Ahmedov. Birinchidan, jahon kutubxonalarida mazkur asar to'liq-nusxasining saqlanmaganligi va ikkinchidan, XV — XVII asrlarga oid tarixiy qo'lyozma asarlarning hozir ham qoniqarli darajada o'rganilmayotganligidir. Lekin, haqiqat faqat ma'lum mavzuga bag'ishlangan asarlarni bir-biriga qiyoslab o'rganish va ular keltirgan ma'lumotlarni diqqat bilan tekshirish orqaligina aniqlanadi.

Asarni yozishda muallif ham ko'plab tarixiy, jug'rofiy asarlardan foydalangan. Muallif ko'p hollarda o'z manbalarini aniq ko'rsatmaydi va «aytishlaricha», «qissa va tarix kitoblarda» yozilishicha, «Chig'atoy ulusi ulamolarining kitoblarida keltirilishicha,» «bir guruh odil, haqiqatgo'y tarix arboblarning aytishicha» kabi umumiy iboralar bilan cheklanadi. Lekin, ayrim o'rinlarda o'zi foydalangan ba'zi asarlar va ularning mualliflari nomini ham tilga oladi. Bular orasida mashhur astronom Abu Ma'shar Balxiy, yirik olim, shoir hamda sayyoh Rashiduddin Votvot, mashhur tarixchi-yu, davlat arboblari

Alouddin Otamalik Juvayniy, Rashiduddin Fazlulloh Hamadoniy, Hamdulloh Mustovfiy Kazviniy va boshqalarning nomlari tilga olinadi. Olim hadis kitoblar va rivoyatlardan foydalanganligini ham aytadi. Rashiduddin Votvot, Xo‘jandiy va Nizomiydan olingan she‘riy parchalar ham uchraydi. Shunga qaraganda Ulug‘bek mazkur asarini yozishda juda ko‘p va mazmun jihatdan xilma-xil kitoblardan keng foydalangan.

Endi bevosita asarning tarkibiy qismi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, asar muqaddima va yetti bobdan iborat.

Muqaddimada, o‘rta asr tarix ilmida hukm surgan an‘anaga ko‘ra, Tangri taolo, uning elchisi, payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va-s-sallam va avlodlari sha’niga aytilgan maqtovlar, Odam Atoning yaratilishi hamda islomiyatdan avval o‘tgan payg‘ambarlar (Shis, Kaynon, Mahloyil va boshqa), Nuh alayhissalom va uning farzandlari tarixi qisqacha bayon qilinadi.

Birinchi bobda Turkxon ibn Yofas hamda uning Turkiston zaminda podsholik qilgan avlodi, tatar-mo‘g‘ul va turk qavmlari hamda podsholari tarixi bayon etilgan.

Ikkinchi bobda turk-mo‘g‘ul xalqlarining afsonaviy onasi Alanquva va undan tarqalgan avlod, ya‘ni podsholar (Buzunjor qoon, Buqoxon, Dutuminxon, Qobulxon, Boysung‘urxon, Barton bahodir, Yasugay bahodir) tarixi, VIII asrda jaloyir qavmi boshliqlarining kuchayib ketishi haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Uchinchi bobda buyuk jahongir Chingizxon tarixi bayon etilgan. Ushbu bobda keltirilgan ma‘lumotlar ichida asosiylaridan mo‘g‘ul qo‘shinlarining tuzilishi, Chingizxonning oq rangdagi to‘qqiz poyali tug‘i, Chingizxon saroyida amalda bo‘lgan tartib qoidalar haqidagi ma‘lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yana shuni ham aytib o‘tish kerakki, Chingizxon zamonida turk-mo‘g‘ul qavmlari daha(o‘nlik), sada(yuzlik), hazora(minglik) va tumon(o‘n minglik) larga bo‘lingan. Chingizxon zamonida “ hech kim,- deb aytiladi “To‘rt ulus tarixi”da,- o‘z dahasi, sadasi va hazorasidan boshqa joyga keta olmagay va

boshqaning panohiga o'ta olmagay... bunga xilof ish tutganlarni xalq oldida qatl etadilar, toki boshqalarga ibrat bo'lsin".²³

Asarning **to'rtinchi bobida** Chingizxonning Ulug' yurt, ya'ni Mo'g'uliston bilan Shimoliy Xitoyni idora qilgan vorislari tarixiga bag'ishlanadi. Ushbu bobda Chingizxon vafotidan keyin to Amir Temur zamonigacha Mo'g'ulistonda hukmronlik qilgan 21 hukmdordan 17 tasining tarixi qisqacha bayon etilgan. Rashiddin esa bulardan faqat beshtasining nomini, "Zafarnoma" asari muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy ulardan 14 tasining nomini keltirgan.

Beshinchi bobda Chingizxonning to'ng'ich o'gli Jo'chixon naslidan bo'lgan 33 xon zamonida Dashti Qipchoq (hozirgi Qozog'iston, G'arbiy Sibir va Volgabo'yi yerlari)ning tarixi bayon qilinadi.

Mazkur bobda keltirilgan "o'zbek" etnonimining kelib chiqishiga oid o'ta muhim ma'lumotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki o'zbek xalqining kelib chiqish masalasi hanuzgacha ilmiy jihatdan to'la hal qilinmagan bir muammo bo'lib turibdi. Ilm-fanda bu masalaga har xil yondashuvlar va qarashlar mavjud. N.A.Aristov, A.Yu.Yakubovskiy va boshqa chet ellik olimlarning fikricha, "o'zbek" etnonimi Oltin o'rda xoni O'zbekxonning nomi bilan bog'liq. V.V.Grigoryev va A.A.Semyonovlar esa Dashti Qipchoqning sharqiy qismida istiqomat qilgan turk-mo'g'ul qavmlarini o'zbeklar deb ataydilar. G.Vamberi, G.Xovors, Pellolarning fikricha, Dashti qopchoqda ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalari o'zlarini erkin tutganliklari tufayli o'zbeklar ya'ni o'z-o'ziga beklar deb atalgan bo'lishlari mumkin.

Asarning **oltinchi bobida** Eron bilan Ozarboyjon ustidan qariyb bir asr mobaynida (1256-1353) hukmronlik qilgan Elxoniylar davlati ularning ichki ahvoli va tashqi siyosatiga oid bir talay qimmatli ma'lumotlar bor. Bundan tashqari Elxoniylar davlatining Misr, Shom, Suriya, Oltin O'rda hamda Chig'atoy ulusi bilan bo'lgan siyosiy munosabati haqida ham e'tiborga molik ma'lumotlar uchraydi.

²³ M.Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. Cho'lpon. T. 1994. 7-b.

Asarning eng muhim qismi uning **yettinchi bobidir**. Unda Chig'atoy ulusining Chingizxon zamonidan (1227 y.) to Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi (1370 y.) gacha bo'lgan tarixi hikoya qilinadi.

Ma'lumki, Chig'atoy ulusining qariyb 150 yillik (1227-1370) tarixi o'rganilmagan. Bu haqda qo'lyozma manbalarda yetarli ma'lumot bo'lmasligi bunga asosiy sababdir. To'g'ri, Chig'atoy ulusida hukmronlik qilgan xonlar haqida juda qisqa ma'lumotlar Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida, Mahmud ibn Valinnig "Bahr ul-asror"ida ham keltirilgan. Lekin "Tarix-i arba' ulus" ularga nisbatan bir qadar to'laroq. Unda ulusda hukmronlik qilgan Chig'atoy va O'qtoy qoon naslidan (Ali sulton, Donishmandchaxon, Suyurg'atmishxon va Sulton Mahmudxon) bo'lgan 33 xonning tarixi qisqa tarzda bayon etilgan.

Chingizxon vafoti oldidan (1227-y) o'z tasarrufiga kirgan mamlakatlarni o'g'illariga taqsimlaganda, ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonga Sharqiy Turkiston, Yettisuv vohasi va Movarounnahrni, Xorazmning bir qismi bilan in'om etgani, hozirgi Afg'oniston va Shimoliy Hindiston yerlari esa Chig'atoylar tasarrufiga keyincha o'tgani haqida aytiladi. "To'rt ulus tarixi"da keltirilishicha, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston yerlari ham Chingizxonning hayotligidayoq Chig'atoyxonga berilgan. Bu haqida asarda quyidagilarni o'qiymiz: «Chingizxon G'uronzamin mamlakati hokimligini, Koshg'ar sarhadlaridan uyg'urlar yeri chegarasigacha; Jayhun daryosi adog'igacha yastangan yerlar: Eron bilan Turon oralig'idagi Balx, Badaxshon, Qobul, G'aznin, Sind daryosigacha bo'lgan yerlarning ko'p qismini shu suyukli farzandi Chig'atoyxonga berdi».²⁴

Chig'atoy qo'shinining tuzilishi, ayniqsa harbiy bo'linmalar nomi haqidagi ma'lumotlar o'ta muhimdir. Masalan, qorovul qism o'sha vaqtlarda bulung'or, irovul (ilg'or qism orqasidan boruvchi bo'linma) — burung'or, maymana (o'ng qanot)- avang'or, soqa (ar'ergard) — o'kchungor deb atalgan.

Asarning to'liq nusxasi hali topilmagan. Bugungi kunda uning qisqartirilgan to'rtta nusxasi saqlangan bo'lib, uning ikkitasi Angliyada, bir nusxasi Hindistonning Bankipur shahri kutubxonasida, to'rtinchi nusxasi AQSHning

²⁴ M.Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. Cho'lpon. T. 1994. 297-b.

Xarvard universitetida saqlanadi. Asarning mazkur o'zbekcha nashri asarning Britaniya muzeyi (Angliya)da saqlanayotgan ADD 26190 raqamlik qo'lyozmasi asosida 1994-yil B.Ahmedov, N.Norqulov, M.Hasaniylar tomonidan amalga oshirilgan. Bu ish ushbu asarga qiziquvchilar safini kengaytiradi deb aytish mumkin. Ushbu asarning tarjimasi asarni o'zbek tilida o'qiy olish imkonini beradi.

Shunday qilib, fan va madaniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir Mirzo Ulug'bek, tarix ilmi sohasida ham samarali faoliyat olib bordi. Buning natijasini "To'rt ulus tarixi"dan ko'rish mumkin. Ko'p bora tanqidlarga uchragan bu asar o'zining ilmiy ahamiyati va o'quvchisini yo'qotmagan. Asardagi ma'lumotlar o'z ahamiyatini saqlab qolgan. O'rta va Markaziy Osiyoning XIII-XIV asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda muhim o'rin egallashi shubhasizdir.

II BOB. Mo'g'uliston tarixi tarixshunosligiga oid ma'lumotlar.

2.1. Sharqiy Turkistonning mo'g'ullar tasarrufidagi davri tarixining o'rganilishi.

XIII asr boshida ko'pgina mo'g'ul qabilalari birlashib, Temuchin hukumronligidagi mo'g'ul davlatini tashkil etdi. Ushbu davlat Chingizxon va uning vorislarining istilochilik yurushlari natijasida barpo etilgan davlat. Chingizxon davrida vujudga kelgan dunyoviy mo'g'ullar imperiyasi deyarli Osiyoning barcha davlatlari hamda qisman Yevropa hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan²⁵.

1206 – yil bahorida Mo'g'ulistondagi turli qabilalar sardorlarining qurultoyida Temuchin xon etib tayinlangan va unga (Chingizxon – ulug' xon) deb nom berilgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, u bu nomni otryad “xoni” bo'lganda olgan, boshqa ma'lumotlar bo'yicha esa faqat 1203-yil keroitlar ustidan g'alaba qozongach, yana boshqa ma'lumotlarga asosan 1206-yil naymanlar ustidan g'alaba qozongandan so'ng qabul qilgan. Uning Xitoy zamondoshi Men xun “Chingiz” so'zini xitoycha Syan tshi (“osmon o'g'li”) transkripsiyasi deb hisoblaydi. Rashiddinning ma'lum qilishicha, mo'g'ul etimologiyasi bo'yicha “chingiz” chink “qudratli” sifatning ko'plik shaklidan kelib chiqadi²⁶.

Chingizxon – mo'g'ul bosqinch va mo'g'ul imperiyasining asoschisi, 1155 – yil (turk-mo'g'ul kalendari bo'yicha cho'chqa yilida, 549/50 hijriy) Dolyun-Baldak, Ononning o'ng qirg'og'ida tug'ulgan²⁷. Chingizxonning otasi Yasugay Bahodir totor qavmi ustidan g'alaba qozonib qaytayotganda unga Ulun yanga xotun o'g'il farzand ko'rdi degan xushxabarni yetkazadi. Onadan tug'ularkan qo'li mushti qonli edi. Zamon donolari: “bu bola sohibqiron bo'lib tug'ulgan deydi. Yana shuki, kaftida bir kaft qotib qolgan qon bor edi. Bu shundan dalolatki, vaqt

²⁵ Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Ленинград. 1934. 12-б.

²⁶ Бартольд В.В. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. Восточная литература. М. 2002- 619-б.

²⁷ Бартольд В.В. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. Восточная литература. М. 2002. 615-б.

o'tishi bilan zamon ahlini qatl etur; ko'plab podshohlarni oyoq osti qiladi"²⁸. Bu yerda Chingizxon haqida so'z yuritiladi.

Chingizxon otasidan 12 yoshida yetim qolgan va bobosi hamda otasiga itoat etgan 30000 yoki 40000 oiladan ko'p qismi uning yoshligidan foydalanib ketib qolgan. Chingizxon o'z qo'li ostidagilarga saxiy, odil bo'lgan, ularning mehrini qozona olgan, natijada boshqa qabila jangchilarini ham o'ziga jalb eta olgan. U juda jasur, qattiqqo'l, adolatli bo'lgan. Gohida qurol, gohida siyosat bilan ish ko'rib, askarlarga o'rnak bo'lib, kuchli tartibni joriy qilib, oqibatda qo'shnilari uchun dahshatli bo'lgan kuchli qo'shin barpo etishga erishgan.²⁹ Barcha manbalar shuni ta'kidlaydiki, Chingizxon o'z hokimiyati ostiga butun Mo'g'ulistonni birlashtirgandan so'ng o'zining birinchi qurultoyini chaqiradi va hokimiyatning tashqi belgilari hamda imperiyadagi barcha tartibotlar o'rnatilgan edi. Xon hokimiyatining belgisi sifatida to'qqizta oq ot dumlari ifodalangan bayroq joriy etilgan. Xitoy ma'lumotlariga ko'ra, ushbu bayroqda qora oy tasvirlangan edi³⁰.

Chingizxon mo'g'ullardan ko'p sonli yaxshi qurollangan, qattiq intizomga asoslangan va uyushgan qo'shin tuzgan. Uning davrida qo'shin tuzilishi quyidagicha bo'lgan: tumanboshi, mingboshi, yuzboshi, o'nboshi. Qo'shindagi har bir jangchi harbiy yurish vaqtida o'ziga zarur bo'ladigan qurol-yarog', turli anjomlar va ot-ulovlarni oldindan tayyorlab qo'yishga majbur bo'lgan. Chingizxon aytgan: "Kimki o'z uyida tartib o'rnatilgan olsa, u davlatda ham tartib o'rnatilgan oladi. Kimki 10 kishini boshqara olsa, unga 1000 va 10000 kishi ustidan boshqaruvni ishonish mumkin".³¹

Asosiy qo'shinidan tashqari Chingizxonning xususiy lashkari "keshik" ham bor edi. Keshik (navbatdagi soqchi) mamlakat ichkarisida tartib o'rnatish quroli bo'lgan. Keshik ahyon-ahyondagina jangga tashlanar va o'ta xavfli holatlar uchun saqlab turilardi. Keshikdagi oddiy askarlarining martabasi qo'shinning komandirlik

²⁸ M.Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. Cho'lpon. T. 1994. 81-6.

²⁹ M.Ivanin. Ikki buyuk sarkarda : Chingizxon va Amir Temur. Fan. T. 1994. 20-b.

³⁰ Бартольд В.В. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. Восточная литература. М.2002.615-6.

³¹ O'sha asar. 615-b.

lavozimlaridan baland bo'lgan. Mening keshixtenim (deb amr qilgan Chingizxon) mingboshining har qanday harbiy boshlig'idan ustun turadi.³²

Chingizxon mo'g'ullarni birlashtirib o'ziga mustahkam qo'shin tuzib bo'lgach, atrofidagi o'lkalarni egallashga kirishadi. U kuchli qabilalar bilan urushishdan oldin Mo'g'ulistonni o'rab turgan kichik qabilalarni bo'ysundirishni o'yladi. O'sha davrda Mo'g'ulistonni 3 ta kuchli qabila o'rab turardi. G'arbdan naymanlar, janubdan kerotlar, sharqdan tatarlar.

Bu qabilalarga alohida-alohida hujumlar qilib, birining hujum qilmoqchiligini boshqasiga yetkazib turadi, ularning o'ziga qarshi kuchli qo'shin bo'lib birlashishga imkon bermadi. Shu tariqa Chingizxon oddiy xondan Manjuriyadan Irtishgacha, Baykaldan, Tong'utgacha bo'lgan yerlarda ko'chib yuruvchi ko'p sonli jangari qabilalar va xunlar imperiyasi hukmdoriga hamda kuchli podsholiklarga qo'rquv soluvchi kimsaga aylandi.

1209 yili Xitoyning shimoli-sharqidagi Tang'it mamlakatiga yurish qiladi, ularning qo'shinlarini tor-mor etib, Xuanxe daryosining chap qirg'og'ida joylashgan poytaxt shahar Nin Gya yoki Nin Sya ni qamal qiladi. Keyinchalik tong'ut shohining qizini o'z nikohiga olgach, u bilan sulh tuzib, Mo'g'ulistonga qaytadi. Xitoyga yana bir necha marta yurish qiladi. 90 ga yaqin shaharni vayron qilib 1215- yil Pekinni bosib oladi.

1215 yili Chingizxon shimoliy Xitoyda erishilgan g'alabalarni mustahkamlab, o'z etiborini g'arb tomon qaratadi. 1219 yili u Jebenoyonga Sharqiy Turkiston va Yettisuvni ishg'ol etishni buyuradi. Chingizxon armiyasi kuchluq davlatini tor-mor keltirib Movarounnahrda bostirib kiradi.³³

1206-1211 yillar bepayon Go'bi sahrosidagi qavm-qabilalar itoatga keltirilgan, undan so'ng Shimoliy Xitoyda erishgan muvafaqiyatlarini mustahkamlab olgandan so'ng Chingizxon 1207–1211 yillarda Sibir va Sharqiy Turkiston xalqlarini bo'ysundirish uchun harakat boshlaydi.³⁴ 1210 yilda Chingizxon uyg'urlarni va ular bilan birga Qora Xitoyga tobe bo'lgan kichik

³² Yakubovskiy A.Yu. Oltin O'rda va uning qulashi. O'quvpeddavnashr. T. 1956. 41-b.

³³ Uz.wikipedia.7val.com

³⁴ Usmonov Q. Sodiqov M. Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. O'qituvchi. T. 2002 154-b.

qabilalarni o'z fuqarologiga oladi³⁵. IX asrda uyg'urlar kuchli davlatni tashkil etar edilar. Ularning bir qismi budda, boshqa qismi esa xristian diniga mansub bo'lib, chorvachilikdan dehqonchilikka o'tgan, yuksak madaniyatli xalq edi. Chingizxon uyg'urlardan mo'g'ul yozuvi uchun alifboni qabul qiladi. Va shu yozuvda mo'g'ullarning farzandlarini o'qitishni buyuradi. Mo'g'ullarning butun savdo-sotig'i uyg'urlar qo'lida bo'ladi. Davlat ma'muriyatini markazlashtirish maqsadida Chingizxon Qoraqurum qal'asini o'z imperiyasining poytaxtiga aylantirdi. Xat-savodga mutlaqo ega bo'lmagan, madaniyati nihoyatda tuban mo'g'ullar davlatining boshqaruv ishlarida uyg'urlardan foydalangan.

1210–yil naymanlar yo'lboshchisi Kuchluk Chingizxon ta'qibidan qochib Mo'g'ulistondan qochib ketib, Gurxon qo'shiniga zarba berib, O'zgandagi G'aznani egallaydi. 1219–yil Chingizxon qo'shini Sharqiy Turkiston va Yettisuvga kirib, Kuchlukning davlatini parchalab tashlaydi. Kuchluk qoraxitoylar davlati xarobalarida Xo'tan, Yorkent, Qoshg'ar Yettisuv va Farg'ona viloyatlaridan ancha katta, ammo mustahkam bo'lmagan davlat tuzgan edi. U aholining musulmon qismi bilan til topisha olmay ularni quvg'in qilishga o'tadi. Chingizxon bundan foydalandi. Kishilarni diniy mansubligi uchun taqib etmaganligi sababli Kuchlukka yordam bergan musulmonlar unga yordam bera boshladi.

O'zlarining musulmon vassallari bilan jangda qoraxitoyliklar hukumati avvalida muvaffaqiyat qozondi. Faqatgina Chingizxon tomonidan Mo'g'ulistondan siqib chiqarilgan ko'chmanchilar imperiyaning sharqiy chegarasiga o'tgach vaziyat o'zgardi. Ular boshida g'arbiy mo'g'ul qabilasining eng qudratli naymanlarning so'ngi xonining o'g'li Kuchluk turgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Kuchluk Yettisuvga yetib kelganidan so'ng (1209) o'z ixtiyori bilan Go'rxon huzuriga keladi; boshqa ma'lumotlarga ko'ra esa u qora xitoy qo'shinlari tomonidan qo'lga olingan. Juvayniyning ma'lumot berishicha, go'yoki Kuchluk va qo'zg'olon ko'targan musulmon hukmdorlardan Xorazmshoh Muhammad o'rtasida kelishuv

³⁵ M.Ivanin. Ikki buyuk sarkarda : Chingizxon va Amir Temur. Fan. T. 1994. 238-b.

tuziladi. Unga ko'ra, Sharqiy Turkiston, Kuljin o'lkasi, Yettisuv Go'rxonni mag'lub etadigan bir odamga o'tishi kerak edi.³⁶

Ma'lumotlarga ko'ra, Kuchluk mo'g'ullardan jangsiz qochib ketdi. Bir qator hikoyalarga asosan, shuni tahlil qilish mumkinki, mo'g'ullar Kuljin o'lkasidan Yettisuvga kirib, o'sha joydan Qoshg'arga bostirib kiradi. Yettisuv poytaxti Bolasog'un ular tomonidan qarshiliksiz egallandi, ular tomonidan Gobaliq, ya'ni yaxshi shahar nomini oladi. Qoshg'arda balki, Yettisuvda ham Kuchluk tomonidan olib qo'yilgan jamoviy e'tiqod qilish huquqini musulmonlarga qaytarish to'g'risida Chjebe buyruq beradi. Aholi mo'g'ullarni og'ir jabr – zulmlardan xalos etuvchilar sifatida kutib olishda va qisqa vaqt ichida ularning uyida joylashgan Kuchluk qo'shinlarni chiqaradi.

Kuchluk Sariko'lda qo'lga olinib, o'diriladi. Shundan so'ng shaharlar mo'g'ullarga itoatkorlik bildiradilar. Tinch aholining mol–mulklariga tegmay mo'g'ullar ma'lum miqdorda o'ljani qo'lga kiritadi. O'sha davrda Kuchluk davlatining egallanishi shunchalar muhim voqea bo'lgan ediki, endilikda Chingizxon o'z sarkardasining o'z g'alabalaridan g'ururlanib, itoatkorlikdan chiqib ketishidan hayiqa boshlaydi. Shubhasiz, mo'g'ullar tomonidan Sharqiy Turkistonning egallanishi to'g'risidagi xabar Sulton fuqarolariga yetib boradi va ularda kuchli taassurot qoldiradi.³⁷

Shu tariqa XIII asrning 10–20 yillaridan sharqiy Turkiston hududi mo'g'ullarga tobe bo'lgan. 1251 – yil G'arbiy Jung'oriya va Qashg'ar hududlari Chig'atoy ulusiga, Shimoliy qismi Tarbag'atoy bilan birga O'qtoy ulusi tarkibiga kiradi³⁸.

Zabt etilgan o'lka va viloyatlarni Chingizxon hali hayotlik chog'ida o'g'illari va nabiralariga taqsimlab berdi. *Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil (Volga) bo'yi, Xorazm va Darbandgacha* bo'lgan o'lka Chingizxonning to'ng'ich o'g'li **Jo'ji** va uning vafotidan keyin esa nabirasi **Botu** qo'lga topshirildi. *Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahrga* uning ikkinchi o'g'li **Chig'atoy ega** bo'ldi.

³⁶ Бартолд В.В. Очеркъ истории Семиречья. М. 1963. 38-б

³⁷ Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. М. Сочинения том 1. 1963. 470-б

³⁸ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Tom 7. T. 2002. 637-638 betlar.

Chingizxon o'zi tug'ulib o'sgan *Mo'g'ulistonni*, shuningdek *Xitoy*ni uchinchi o'g'li va vorisi **O'qtoyga** berdi. Kenja o'g'li **Tuluga** esa *Xuroson, Eron, va Hindiston* tegdi. Shunday qilib, mo'g'ullar bosib olingan viloyatlarni uluslarga taqsimlab, udel asosida boshqarishga kirishdi.³⁹

XIII asr boshlaridayoq Chig'atoy tasarrufiga berilgan *Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda* **Chig'atoy ulusi** tashkil topdi. Bu feodal davlat XIV asrning 40-yillariga qadar yashaydi. Mo'g'ullar katta va madaniy rivojlangan viloyatlarni idora qilishda mutlaqo tajribaga ega emas edilar. Buning ustiga bunday viloyatlarni boshqara oladigan ma'murlar ham yo'q edi. Chig'atoy tasarrufiga kirgan viloyatlarni boshqarishda Chig'atoy o'ziga bo'ysundirilgan xalqlarning yuqori tabaqa vakillari xizmatidan foydalanadi.

XIV asrning o'rtalariga kelib, Chig'atoy avlodlari va feodal zodogonlarining o'zaro kurashlari natijasida Chig'atoy ulusi ikkiga bo'linib ketadi. Shu paytdan boshlab, uning shimoliy–sharqiy nohiyalari, ya'ni Ila daryosi o'lkasi, Yettisuvning bir qismi va Sharqiy Turkiston Mo'g'uliston deb atala boshlaydi. Boshqacha aytganda Chig'atoy ulusi parchalanishi natijasida Mo'g'uliston davlati tashkil topadi va tarkibiga yuqorida ko'rsatilgan hududlar kiradi.

U yerda Chig'atoyxonning ayrim avlodlari hukmronlik qildilar. Shu vaqtdan boshlab, ulusning sharqiy va shimoli–sharqiy qismida qolgan mo'g'ul qabilalari o'zlarini mo'g'ullar davlatini esa Mo'g'uliston deb atay boshlaydi. Movoraunnahrga ko'chib ketgan mo'g'ullar esa chig'atoylar nomi bilan mashhur bo'ldi. Mo'g'ullar Movoraunnahrga ko'chib ketgan qabilalarni qoraunas (duragay), ular esa mo'g'ullarni jete (qaroqchi, talonchi) deb atardilar.⁴⁰ 1348 – yilda Chig'atoy naslidan bo'lgan Tug'luq Temur Mo'g'uliston xoni qilib ko'tariladi. Chig'atoy ulusining janubi–g'arbiy qismi (asosan Movaraunnahr) ni ham Chig'atoy avlodlari boshqargan. Ammo XIV asrning 50-yillarida ko'chmanchi feodal zodoganlar Bayon Sulduz hamda Hoji barlosning oliy

³⁹ Usmonov Q. Sodiqov M. Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. O'qituvchi. T. 2002. 158-b

⁴⁰ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Tom 8. T. 2003. 217-b.

hokimyatni qo'lga kiritib olish uchun urinishlari behuda ketgach, Movoraunnahr 12 – 15 mustaqil feodal uluslarga bo'linib ketadi.

XIV asrning 40-yillarida Chig'atoy ulusi ikkiga bo'linib ketadi. Uning sharqiy qismida – Sharqiy turkiston va Yettisuvda mo'g'ullarning Dug'lat amirligi, g'arbiy qismida esa Movarounnahr amirligi tashkil topadi.

XIV asr o'rtalarida Chingizxon egallab olgan erlar uning merosxo'rlari qo'l ostida bo'lsa ham, mayda bo'laklarga bo'linib, viloyat xonlari o'rtasida toju-taxt, davlat uchun o'zaro nizolar kuchayib ketgan edi. 1348 yilga kelib, Sharqiy Turkiston erlarida Mo'g'uliston feodal davlati tashkil topdi.⁴¹

XV asr boshlarida Mo'g'ulistonda Tug'luq Temur avlodi o'rtasida toju – taxt uchun o'zaro kurash avj olib ketdi va bu oxir – oqibatda mamlakatning siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy hayotida og'ir tushkinlikka olib keldi.

Sharqiy Turkiston Buyuk Ipak yo'lida bo'lganligi sababli, u doim yirik davlatlar e'tiborini tortib turgan. Milodiy III asrda Sharqiy Turkistonning shimoliy qismi-Jung'oriya syanbi, V- VI asrlarda jujan, VI asrning 2–yarmida turk qabilalari nazoratida bo'ldi.

1465-yilda dug'lot avlodi vakili bo'lgan Abu Bakr boshchiligida markaziy Yorkend shahri bo'lgan xonlik tashkil topdi. Keyinroq esa Xo'tan va Qashqar viloyatlari, 1499-1504-yillarda Yorkend taxtiga To'g'luq Temur avlodlaridan Saidxon o'tirdi. Keyingi ikki yil davomida Sharqiy Turkistonning qolgan qismi ham shu xonlik ixtiyoriga o'tadi.

Mo'g'uliston davlati asoschisi To'g'luq Temur va uning avlodlari Sharqiy Turkistonda XVI asrning 70-yillarida hukmronlik qilgan. Chig'atoy ulusi parchalanishi jarayonida uning sharqiy qismidan Amir Pulatchi yordamida To'g'luq Temur tuzgan davlat tarkibiga Sharqiy Turkiston, Janubiy Sibir va Yettisuv kirgan. To'g'luq Temur vofotidan so'ng o'g'li Ilyosxo'ja va undan keyingi xonlar ya'ni To'g'luq Temur vorislarigina faqat Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilgan

⁴¹ www.ursu.uzpak.uz

To'g'luq Temur vafotidan so'ng o'g'li Ilyosxo'ja hokimiyat tepasiga keldi. Ilyosxo'jaga Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Tyanshan etaklari, Irtish va Emil daryolari atrofidagi yerlar kirgan⁴².

⁴² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Tom 4. T. 2002. 117-b.

2.2 Yettisuv mintaqasi tarixining tarixshunosligi.

Yettisuv va Sharqiy Turkiston mo'g'ullarga o'z xoxishi bilan taslim bo'lganini ko'rganmiz. Shuning uchun Xitoy, Movaraunnahr va G'arbiy Osiyo mo'g'ullar istilosidan hech qancha jabrlanmadi. Mo'g'ullar istilosidan so'ng, Yettisuvga kelgan sayohatchilar, bu davlatni madaniyati go'zal ekanligini ta'riflashgan. Bunday sayohatchilar qatoriga Xitoylik vazir E-lyuy-chu-pay ham kiradi. U Chingizxon bilan 1219 – yilda g'arbga bo'lgan yurishda birga bo'lgan. U 8 yoki 9 ta shaharlarni o'z ichiga olgan, Olmaliqni eslatib o'tadi. Bu yerda hosil mo'l bo'lgan. Xitoyliklarga o'xshab bu yerda non o'simliklarining 5 ta turi yetishtirilgan. G'arbga Ildan Talasga tomon bo'lgan yo'lda g'arbiy Lyoning poytaxti Xosun-Ordu bo'lgan. Bu shaharga bir necha o'nlab shaharlar bo'ysungan.⁴³

1220 – yilda Chjurchjen imperatori Vu-gu-sunni g'arbga, Chingizxonga sovg'a – salomlar bilan elchi qilib yubordi. Uning ta'riflashicha, qora-xitoyliklar kamayib qolgan. Va shu kamchilik qora-xitoylar odatlarini va Xoy-xu kiyimini qabul qilishgan. Xitoy yozuvchilari bu termini ishlatish orqali ba'zida musulmonlarni, turklarni hususan, uyg'urlarni nazarda tutgan. Bu yerda bu termin musulmonlarni anglatgan.

Yettisuv musulmonlari qolgan musulmonlardan jangavorlik san'ati ko'pligi bilan ajralib turishgan. Ilada yashagan musulmonlarning Xoy-xusini Vu-gu-sun qoralagan, ya'ni unga bu Xoy-xuning ochligi va jirkanchligi yoqmagan. Musulmonlarning oxirgilari harakterlarining yumshoqligi bilan ajralib turganlar, ular qotillikdan qochganlar.

Ko'rib o'tganimizdek, 1221-yil mo'g'ul qo'shinlari g'arbga Yettisuvgacha borib, ushbu viloyatning shimoliy qismini mo'g'uyl imperiyasiga qo'shdi, lekin o'sha yili Xitoy bilan uirush boshlangan va Chingizxonni barcha qo'shinlarini cho'l tomonga yo'naltirishga hamda vaqtinchalik g'arbga qochayotgan nayman va mergitlarni tinch qo'yishga majbur bo'ldi.

⁴³ Бартолд В.В. Очеркъ истории Семиречья. М. 1963. 40-б.

Mo'g'ullar Kuljin o'lkasidan Yettisuvga kirib, o'sha joydan Qoshg'arga bostirib kirishdi. Yettisuv poytaxti Bolasog'un ular tomonidan qarshiliksiz egallandi. Qoshg'arda va Yettisuvda ham Kuchuk tomonidan olib qo'yilgan. Jamoaviy e'tiqod qilish huquqini musulmonlarga qaytarish to'g'risida Chjebe buyruq berdi. Aholi mo'g'ullarni og'ir jabr-zulmlardan xalos etuvchilar sifatida kutib olishdi va qisqa vaqt ichida ularning uyida joylashgan Kuchluk qo'shinlarini kaltaklab chiqishadi.⁴⁴

Turk amirlarining ya'ni musulmonlarning g'arbdagi muvoffaqiyatlari sharqiy qismdagi mo'g'ul amirlarini qo'zg'atib yubordi. Bu amirlardan eng qudratlisi Po'latchi bo'lgan. Aynan uning yerlari turk amirlarining yerlari bilan chegaradosh edi. Bu yerlarning nomi Mongalay-Sube viloyati bo'lgan. Bu viloyat tarkibiga Sharqiy Turkistonning Qoshg'ardan Kuchigacha bo'lgan qismi, Yettisuvdagi Issqko'ldan janubgacha bo'lgan qismlari kirgan. Amir Po'latchi 1348 – yilda Muzart yo'li orqali Kuljin o'lkasidan Oqsuvga 18 yoshli shahzoda Tug'luq Temurni olib kelgan va uni Tuvining nabirasi deb, e'lon qildi va hammaga uni xon deb tan olishlarini majbur qilgan. Oldin Tug'luq Temur mo'g'ul amirlaridan birining o'g'li hisoblangan. Aslida esa uning onasi Tuvining o'g'li Emil-Xojaning xotini bo'lgan va u o'lgandan so'ng o'g'lini ikkinchi erining uyida tug'gan ekan. Boshqa ma'lumotlarda Po'latchi bu xon avlodini o'zi topgan deb ham aytiladi.

Tug'luq Temur 1360 – yilda xatto turk amirlarini o'ziga bo'ysundirgan. Uning o'limidan so'ng o'g'li Ilyos-Xo'ja va uning askarlari Movaraunnahrdan quvib chiqarilgan. Tug'luq Temur Olmaliqqa ko'milgan. Uning qabri hozirgacha saqlanib kelingan. Qabr Alimtudan 8 vyorst va Xorun-Mozordan 1 vyorst uzoqlikda joylashgan.

Po'latchi va Tug'luq Temur barpo etgan davlat tarkibidagi Sharqiy Turkistondan tashqari barcha mamlakatlar aholisi ko'chmanchi bo'lgan.⁴⁵ Unga shimoldan janubga, sharqdan g'arbga yuvib turgan Irtish daryosi va

⁴⁴ Бартольд В.В. Работы по истории и филологии тюрских и монгольских народов. Восточная литература. М. 2002. 470-б.

⁴⁵ Бартолд В.В. Очерк истории Семиречья. М. 1963. 44-б.

Emildan Tyan-Shangacha, Barkuldan Farg'ona va Balxashgacha bo'lgan yerlar kirgan. Balxash Ko'kcha-Dengiz deb atalgan va O'zbekiston hamda Mog'uliston orasidagi chegara davlat hisoblangan, ya'ni Juchidovning yerlari bo'lgan. Bu davlatning etnografik munosabati oldingi chig'atoy yerlarining g'arbiy yarmidan farqlanadimi yo'qmi buni aytish qiyin. Shaqdagi ko'chmanchilar va g'arbdagi musulmonlar o'rtasidagi ma'ishiy munosabatdagi farq juda katta bo'lgan. Shuning uchun bir butun chig'atoy davlatini tuzish Temurning ham qo'lidan kelmagan. Islomga va musulmonlar madaniyatiga xalqning orasida qarshilar ko'p bo'lgan. Ularning ko'p qismi dinsiz qolib ketgan va XV asrning ikkinchi yarmida g'arbiy qo'shnilar ularni musulmon deb topishga muvaffaq bo'lishgan. Temur va temuriylar davrida Mo'g'ulistonliklar so'kiladigan so'z – “Jete”, ya'ni “Qaroqchilar” deb atalgan. “Jete yurti” termini tarixchilar tomonidan Mo'g'ulistonni anglatuvchi ma'noda ishlatilgan.

Esan-bug'aning o'limidan so'ng Mo'g'ulistonning g'arbiy qismi Yunus qo'liga o'tdi. Mamlakatni 873 (1468-9) yilgacha Esen-bukining o'g'li Dost-Muhammad boshqargan. Do'st-Muhammadning o'lidan so'ng, Oqsuvni Yunus egalladi. Do'st-Muhammadning o'g'li Kepak-Sulton esa Turfonni 4 yil davomida boshqargan. Oxir oqibatda u o'zining tarafdorlari tomonidan o'ldiriladi va uning boshi Yunusga jo'natiladi.

Shu yo'sinda 1472 – yilga qadar hamma davlatlar Yunusning qo'l ostida to'planganlar. Yangi xon oldingi xonlarga qaraganda o'zining tarafdorlaridan ham foydalangan. Yunus 818 yoki 819(1415-17) yilda tug'ilgan. Yoshligida uni Fors (Eron) ga olib kelishgan. Bu yerda u asosiy musulmon ta'limini oldi va u shuningdek, mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy qo'lida tahsil olgan. Movorounnahrlik bir qozi o'zini Yunusxonga tanishtirishdan oldin, Yunusxonning tashqi tuzilishi kibrli “oddiy turk” deb o'ylagan. U bilan ko'rishgach uning madaniyatli inson ekanligini ko'rib hayratda qolgan. U hech ham ko'chmanchi hayotga ko'nika olmagan. U butun umri davomida bironta shaharda muqim yashashga harakat qilgan va o'zining tarafdorlarida

ham shuni uyg'otishga uringan. Muhammad Haydarning aytishicha : Yunusxon tushunib yetdiki ; bunday hayot tarzini o'zgartirmay turib, musulmon bo'la olmas edi. Uning harakatlari juda oddiy bo'lgan. Shahar hayoti mo'g'ullarga qamoqdan ham battar tuyilgan. Aholisi undan ranjimasligi uchun u bir necha marta boshqa shaharga ko'chishga majbur bo'lgan.

1472 – yil Yettisuv xalqi qalmiq harbiy qo'mondoni tomonidan qaqshatqich zarbaga uchradi. Bu harbiy qo'mondon Amasanchji-taychji o'z vatanini ichki nizolar tufayli tark etgandi. Yunus Ila daryosidan Sirdaryoga qochib o'tdi va qishni shu yerda o'tkazdi. Bu yerda u o'zbek Buruch o'g'lonni yengdi. Keyingi bahorda u Toshkentlik mahalliy bir odamga asir bo'lgan. Bir yildan so'ng bu odam o'ldirilgan va Yunus ozod bo'lib, Mo'gulistonga jo'natilgan. Bu paytgacha qalmiq mamlakatni tozalab bo'lgan edi.

Abu Bakr qo'shinlarining Yettisuvga bo'lgan yurishini Amir Vali boshqargan. Ular muvaffaqiyatli yurish qilganlar. Natijada Mansurxon mamlakatdan qochib, Chalishga ketgan. O'zi bilan qirg'izlarni ham olib ketgan. Mansurxon odamlarining ko'p qismi o'ldirilgan, ba'zilari Mo'g'ulistonga qaytishga muvaffaq bo'lgan. Abu Bakr ularni Issiqko'lning janubiy tomonlariga ko'chib o'tishlariga ruxsat bergan. Yettisuvning shimoliy tominini qozoq xoni Qosim boshqargan. U 924 (1518) yilda olamdan o'tgan. U 1500 – yilda Shayboniyxonni mavf etgan. 1512 – yilda Talas va Sayramni egallab Toshkentni talon – taroj qilgan. Muhammad – Haydariyning fikricha, qozoq xalqi bir million atrofida bo'lgan. Boburning aytishicha: Qosimning harbiy askar qo'shini 300 000 ga yaqin bo'lgan. 1513 – yilning kuzida, Chu (daryosi), (dengizi) ning sohilida Qosimxon Said bilan uchrashuv o'tkazgan. Boburning xizmatida bo'lgan Qosimxon Saidni izzat-ikrom bilan kutib olgan. Said bu uchrashuvni umrining oxirigacha unutmagan.⁴⁶

1514 – yilda Said Boburni tark etgach, Qoshg'arni qo'lga kiritishni rejalashtiradi. U 700 ta odami bilan Yettisuvdan chiqib ketadi (To'rug'art

⁴⁶ Бартолд В.В. Очеркъ истории Семиречья. М. 1963. 85-б.

dovoni orqali o'tib) va qudratli Abu Bakr bilan jang boshladi. Saidning ziyrakona harakatlari natija berdi. Qoshg'ar va Yorkentning egallanishi Said tomonidan Sharqiy Turkistonda tinchlik o'rnatilishiga olib keldi : 1516 – yil Arbatda, ya'ni Oqsuv bilan Kuchaning oralig'ida Mansur bilan Said o'rtasida uchrashuv tashkil qilingan. Bu uchrashuv natijasida Said va Mansur birlari bilan ko'rishib, yarashish bitimini tuzishgan. Turfon va Qorashar, bundan tashqari Sharqiy Turkistonning yuqori qismi Mansurga qoldi, boshqa akasi Emil Xoja Uch-Turfon va Oqsuvga ega bo'ldi. Uchinchi Babachaq-Sultonga esa Bay va Kuchu tegdi. Shu tarzda savdo munosabatlari muxofaza qilindi. Xami (Xitoyda) shahridan Andijon (Farg'onada) gacha bo'lgan yo'lda sotuvchilardan hech qanaqa pul sifatidagi to'lovlar olinmagan.

Qoshg'arni boshqarish davomida Said Yettisuvning janubiy qismini bo'ysundirib oldi. Qirg'iz Muhammad, Abu Bakrga qarshi kurashda Saidxonga yordam bergani uchun uni o'zining halqiga boshliq qilib tayinlagan. Mansur bilan uchrashuvdan oldin Saidning sog'lig'i bezovta qilgan va tabiblarning tavsiyasi bilan shu yilgi yozni Mo'g'ulistonda o'tkazgan. 1516 – yil kuzda o'zbeklar bilan urushni qayta boshlash uchun Yettisuvga keldi. Cho'tirko'l yonida Said akasi Babachaq bilan uchrashdi. Mansurdan tashqari hamma aka-ukalar Arpa vodiysiga yurish boshlashdi va ular qishni uzluksiz bazmu-jamshidda o'tkazishdi. Shuning uchunmikin Said o'zining maqsadini esidan chiqarib qo'ygan edi.

Mog'ullar chekingandan so'ng, Yettisuv qozoqlar va qirg'izlar qo'lida qoldi. Ikki xalq orasidagi ittifoq uzoqqa cho'zilmadi. 1526 – yilda Tohir o'z akasi Abul Qosimni o'ldirgani uchun qozoqlar undan yuz o'g'irgan, lekin qirg'izlar unga sodiq qolgan. 1529 – yilda Tohir 20.000 – 30.000 qozoqlar ustidan boshliq edi. Tohirning qachon vafot etgani ma'lum emas. Muhammad Haydarning aytishicha, Tohir faqir holda vafot etgan. Undan keyin hech bir xon butun qozoqlar ustidan o'rната olmagan. Muhammad Haydar Tohirning shogirdi – o'rinbosari bo'lgan.

Yettisuvda qisqa vaqt ichida Saidning o'rinbosari Rashid tomonidan mo'g'ul hukmdorligi o'rnatildi. Umumiy dushman bilan kurashish uchun Rashid Movaraunnahr o'zbeklari va qozoqlari bilan ittifoq tuzdi. Bu paytda qozoqlarga shimoliy-g'arbdan mang'itlar hujum qilar edi. 944 (1537 yoki 1538) yilda Rashid qozoq xalqini va uning xoni Tug'umni yengdi. Bundan tashqari Tohirning akasi va u bilan 37 ta Sultonni ham yengdi. Bu voqealardan so'ng butun qozoq xalqi yo'q qilinar ekan degan gaplar uzoq yurtlargacha tarqaldi. Yettisuvga bosh etib Said o'zining o'g'li Abdulatifni qoldirdi. Mo'g'ullar o'zbeklar bilan munosabatlarni davom ettirdilar. 951 (1544-5) yilda Issiqko'l bo'yida Rashid Toshkent xoni Navro'z Ahmad bilanuchrashdi. Shunday bo'lsada, Yettisuvda qozoqlar o'z obro'lariga ega bo'lgandilar. Abdulatif dadasining davridayoq Qosimning o'g'li Haq Nazarga, qozoq va qirg'iz xonlariga mag'lub bo'lgan. 1558 – yilga yaqin qozoqlar Jenkinson guvohligida Toshkent, qirg'iz – Qoshg'arga tajovvuz qilishni boshlashgan. Ikkala xalq ham Xitoy va G'arbiy Osiyo bilan savdo – sotiq ishlarini to'xtatib qo'yishgan edi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar xullaski, Vatanning tarixini bilishni istaydi.

“Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni, milliy o'zlikni anglashning o'sishidan xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi”,⁴⁷ deya ta'kidlaydi Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov.

Biz yoshlar o'z oldiga qo'ygan barcha maqsadlariga bimalol erisha oladigan, mustaqil fikr yurita oladigan davrda yashayapmiz. Bularning barcha barchasiga mamlakatimizning mustaqillikka erishishi tufayli erishdik. Mustaqillik mamalakatimiz aholisining bilim darajasini kengaytirdi. Fan va madaniyat, tarix ilmiga qiziqish tobora ortib bordi. Uzoq o'tmishdayoq o'zbek xalqining ilg'or mutafakkirlari olib borgan tadqiqotlar, ularning amalga oshirgan kashfiyotlari jahon, umuminsoniyat fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi. Bilimlar xazinasini ochgan buyuk ajdodlarimizning nomlari butun dunyoga tanildi. Bularning hammasi istiqlol natijasidir. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: ”ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy-axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan nodir qo'lyozmalarni o'rganish vaqti keldi. Chunki, o'zingizga ma'lum, sho'rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag'batlantirilmas edi, hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan

⁴⁷ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. O'zbekiston. T.: 1998. 525-b

manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanardi. Endi, mustaqillik tufayli yaqqol namoyon bo'layotgan tarixiy haqiqatni bilishning, o'zlikni anglashning vaqti yetdi".⁴⁸

Manbalar asosida Markaziy Osiyo tarixini yoritishga keng e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotimizda oldingi qo'yilgan vazifalarni mavzuni yoritish davomida bajara oldik. Ya'ni mavzuga doir manba va adabiyotlarni to'plab, ularni o'rganib, tahlil qilib, tadqiqotimiz mavzusiga doir bo'lgan ma'lumotlarni olib mavzuni ochib berishga harakat qildik.

Ushbu manbalardan biri Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy" asaridir. O'rta asr tarix ilmi sohasida yaratilgan noyob manbalardan biri. Noyoblighi shundaki, asar XIII-XV asrlardagi nafaqat Mo'g'uliston tarixi, ayni paytda O'rta Osiyoning o'sha davrdagi yirik shaharlari xususida, Markaziy Osiyo tarixi haqida, Sharqiy Turkistonning XV-XVI asrlardagi tarixini o'rganishda birlamchi asosiy manbalardan bo'lib xizmat qiladi. Undagi ma'lumotlar o'z qimmatini hech qachon yo'qotmaydi. Ushbu asar bizga nafaqat Mo'g'uliston tarixi haqida, balki Mo'g'uliston zaminining kengligi, ob-havosi, viloyat-u shaharlari haqida, shaharlardagi xalqlarning urf-odatlarini, rasm-u qoidalari batafsil bayon qilingan.

Mashhur tarixchi Rashididdin qalamiga mansub, shu davr tarixi haqida ma'lumat beruvchi yana bir manba "Jome' ut-tavorix"dir.

Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Mana shunday ulamolardan biri, o'zbek xalqining buyuk mutafakkiri, buyuk olim, yirik davlat arbobi Mirzo Ulug'bekdir. "Tarixi arba' ulus" olimning "Ziji jadidi ko'ragoniy" ("Ko'ragoniyning yangi astronomic jadvali") asaridan keyingi tarix faniga bag'ishlab yozilgan ikkinchi yirik asaridir. Mavzuni yoritishda ushbu asardagi ma'lumotlardan keng miqyosda foydalanildi. Ushbu ma'lumotlar mavzuning ahamiyatini oshirdi degan umiddamiz.

⁴⁸ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. O'zbekiston. Tom 7. T. 1999. 135-b.

Tadqiqotimizning bir qismi bo'lgan manbashunoslik bo'yicha yuqoridagi asarlarni o'rganib, tahlil qilish jarayonid atarix sahifalarida ulkan imperiya sifatida mashhur bo'lgan mo'g'ullar tarixi haqida yetarli ma'lumotlar olindi.

Tadqiqotimizning yana bir qismi tarixshunoslik bo'yicha ham yetarli adabiyotlar to'plandi. Ushbu adabiyotlardan foydalangan holda bu qism yoritildi.

Istiqlolimiz sharofati tufayli olimlarimiz eng yaxshi an'analarni o'zlashtirib, tarixiy merosimizni chuqur o'rganib, buyuk ajdodlarimizning ishlarini munosib davom ettirmoqdalar. Ilmiy ziyolilarimizning muhim fazilati hamma vaqt bilimga, ilg'or ilmiy tafakkurning oldingi marralarida bo'lishga intilishdan iborat. Ular yangi, kam o'rganilgan, dolzarb muammolarni tadqiq qilishga dadl kirishib, o'z mehnati bilan respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga sezilarli darajada hissa qo'shmoqdalar.

Rus sharqshunos olimi V.V.Bartold ijodini o'rganish e'tiborga molik ma'lumotlarni berdi.

Yuqorida keltirilgan manba va adabiyotlar orqali mavzu yoritildi. Ushbu tadqiqotni kelgusida yanada keng qamrovli olib borib magistirlilik v anonzodlik ishlari darajasigacha yetqizish niyatidamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1 Karimov.I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.O'zbekiston. T.: 1995. 276b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.Ma'naviyat. T.: 2008. 173b.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Muloqot. 1998. 221b.
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. O'zbekiston. Tom 7. T.: 1999. 413b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.O'zbekiston. T.: 1998. 683b.
6. Muhammad Haydar mirzo. Tarixi Rashidiy. Sharq. T.: 2010. 719b.
7. Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Издательство академии Наук. Том I. М. 1952
- 8 . M.Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. Cho'lpon. T.: 1994. 351b.
9. Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия М. Сочинения том 1. 1963. 755с.
10. Бартольд В.В. Работы по истории и филологии тюрских и монгольских народов. Восточная литература. М.2002. 757с
11. Бартолд В.В. Очерк истории Семиречья. М. 1963. 190с.
12. Владимирцов Б.Я.Общественный строй монголов. Ленинград.1934. 233с.
13. M.Ivanin. Ikki buyuk sarkarda : Chingizxon va Amir Temur. Fan. T.: 1994. 238b.
14. Yakubovskiy A.Yu. Oltin O'rda va uning qulashi. O'quvpeddavnashr. T.: 1956. 371b.
15. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. O'qituvchi. T.: 1994. 427b.
16. Asqarov A. O'zbekiston xalqlari tarixi. Fan. T.: 1992. 182b.

17. Madraimov A, Fuzailova G. Manbashunoslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T.: 2008. 263b.
18. Usmonov Q. Sodiqov M. Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. O'qituvchi. T.: 2002. 451b.
19. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Tom 3,4,7,9. T.: 2003.
20. Sharq mash'ali. T.: 1997 1-2-sonlar. 102b.
21. Qudratullayev H. Bobur armoni. Sharq. T.: 2009. 383b.
22. Тарихи Кашгар
23. www.ursu.uzpak.uz
24. uz.efactory.pl
25. uz.dofollow.be
26. uz.wikipedia.7val.com